39.808(5O)
P 55

YO'L
HARAKATI
XAVFSIZLIGI



M.RIXSIYEV, Q.KARIMOVA

# YO'L HARAKATI QOIDALARI



8

R 5 T

M.RIXSIYEV, Q.KARIMOVA

# YO'L HARAKATI QOIDALARI

**8-SINF O'QUVCHILARI UCHUN**
**O'QUV QO'LLANMA**

cJ
o
*TO*
Cч/

"FARHOD" MS
KUTUBXONASI
FILIALI
"FARHQD" i" I
lUTUBXONASij

TOSHKENT-2012

HO» I. I(iI I<0/N>
KIIK 74 2(H).5K
Y-5N

Vo'l hurakati qoidalari: 8-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma / O'/Ьекг.и Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, O'zbekislon Respublikasi 1lV yo'l Iwiiuhn xavfsizligi bosh boshqarmasi «Avtohamroh» jurnali; tuzuvchi mualliflar: M. Kivslv Q. Karimova. — Toshkent: Yurist-media markazi, 2012. - 96 b.

ISBN 978-9943-387-82-9

UDK: 625.161.4 (075)
KBK: 74.200.58

O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB boshlig'i,
polkovnik X.A.SAYDALIYEVNING umumiy tahriri ostida

Tuzuvchi mualliflar:
Qumrixon KARIMOVA, «Avtohamroh» jurnali Bosh muharriri, filologiya I.nihil nomzodi

Mansur RIXSIYEV, IIV Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi matbuol ho'liiimiil katta inspektori, podpolkovnik

Mas'ul muharrirlar: Akbar Allamuradov, Ma'mura Tadjieva

Taqrizchilar: Tohir Mullaboyev, «Yashil chiroq» teleko'rsatuvi bosh loveIим
Sanjar Mirsolihov, A.Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish markaziy instituti kafedra mudiri

A. Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish markaziy instituli «Maklnbilitii tashqari ta'lim va amaliy fanlar» kafedrasining 2012-yil 29-iyundagi 7-qarori Ihl.im nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilingan, suratlar va sharhlar «Avtohamroh» tiihrli Ivnll jurnaliga tegishlidir. «Avtohamroh» tahririyati jurnali roziligisiz, o'zga usulda chop etish va ko'puvllil«ll taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-387-82-9

© «Yurist-media markazi» na.shriyoli, 2012-yil
© «Avtohamroh» jurnali

# NO'I HARAKATI XAVPSIZLIGIINI I ASHKIL ETISH

%• • • h ii ikiii xavfsizligini tashkil etish — qo'llanishi slandartlnr |M|)t i•«• 111•)' i .ollnadigan hamda yo'l harakalini lashkil etish loyiha I I I OHIMIIII Ida nazarda lutilgan boshqarishning texnik vositalaridan ІН№ [1] < mІ.и шик konslruksiyalaridan kompleks foydalanish asosida Im*'^" "'i'" iiiidi.

(I'H" l"Пии Rivspnblikasining butun hududida yo'l harakalining Ml'[1]"' I'Hllbl Yo'l harakati qoidalari» bilan belgilanadi. O'zbekiston W$ inil"Ш им vo'llarida transport vositalarining o'ng taraflama qalnovi

*«Yo'l harakati xavfsizlifii to'grixida ()'zbekiston Respublikasi Qonunining IS moddasi*

• K I R I S H S O ' Z I

• * nli ll o'qnvehllar!

M iililnkiilliiii/ning iqtisodiy hayoti transport vositalari taraq I|IVhI| I• ll iiii ihambarchas bog'liq. Bugungi o'zbek avtomobilso/ligi ! in[1] i iiillgniing eng ilg'or yuluqlaridan biriga aylangan. Res iiulilil mil/ sliahar va tumanlari ko'chalari, yo'llari avtosanoatimiz »in> mniiiliii id.i islilab chiqarilgan turli rusumdagi mashinalar bilan Г Inborn ^.ivjum bo'lib bormoqda. Ayni paytda yo'l harakati ham nui • ii i iblii .hlb borayotganligi sizga ma'lum. Transport vositalarining Hli |ni\avoiganligi va yo'l harakati tig'izlashib borayotganligi hay llи. lul u va piyodalardan amaldagi qoidalarga so'zsiz itoat clishni i ii J' c hull Yo'l harakati qoidalari»ni o'rganish, bilish va ularga qui i\ Hin.tl qilish har bir kishining burchidir. Jumladan, siz aziz n *|иv • hllai ham (|oidalarni bilishingiz zarur. Shu nuqtai nazardan 11 i tin^i/ilagl kilob tayyorlandi va nashretildi. Undan siz «Yo'l ha i ii mi qoldalai i»ning barcha bo'lim va boblarini o'qib o'rganishinglz, litis dovchilai va piyodalarning harakatlanish qoidalari bilan inn hi il lanlshishingiz, ayni chog'da burch va majburiyatlaringi/nl lnlili olhhlngiz mumkin. «Yo'l harakati qoidalari»ni bosh(|a I'nnlai i|.tinti mnkaminal o'rganib olish sizga faqat foyda keltiradl, XOION n \lavnil/kl, qo'lingizdagl kilob sizga hamlsha hamroh bo'ladl

# YO'L IIARAKATI QOIDALARI YO'LLAR QONUNI



Transport vositalari, jumladan tvtomobillar kashf qilingan davrdan boshlab ko'chalar va yo'llarda harakatlanishni **tartibga** iolib **turuvchi** «Yo'l harakati **]oidalari»** joriy etib kelinadi. ^oidalar u yoki **bu** transport /ositasi **boshqaruvigagina** tegishli jo**'lmay,** **balki** piyodalarning larakatlanishiga ham tegishlidir. Hhunki yo'llarning qurilishi ma'lum )ir maqsadlarga, ya'ni jamiyatga xizmat qilishgayo'naltirilgan. Yo'lI.и м :o'chalarda harakatlanisho'ziga xos qonuniyatlar, qoidalarga asoslaiignU lolda **boshqariladi.** Barcha transport vositalari qatori avtomobill.n hi >iyodalarning harakatlanishini tartibga soluvchi ana shu qoidalnnlii ^oidalarda belgilangan talablar esa qonun yo'li bilan muhofazalangnil igar biron transport vositasi yoki avtomobil haydovchisi qoidalanl.tjii **Eilablarga** rioya qilmasa, **tartibni buzsa,** yo'l-transport hodisasini ••Iit tsa, qonunda ko'rsatilganidek, ma'muriy yoki jinoiy javobgarllH it **irtilishi** mumkin. Masalan, pullik jarima **solish, haydovchilik** huquqid.m lahrum etish, qamoq jazosi belgilash va h.k.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning hayotida qator iqli•..».h• angilanishlar davri boshlandi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlinnl<t o'lganidek, respublikamiz tarixida mutlaqo yangilik, olamshumul voqi > isoblangan o'zbek avtomobilsozlik sanoatiga asos solindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil I / lartdagi qarori bilan «O'zavtosanoat» — avtomobilsozlik korxon.il.ni ssotsiatsiyasi tashkil topdi. Hozirgi kunda mazkur assotsiatsiya lizimnb 'nlab yirik va o'rta korxonalar ishlab turibdi. 1996-yilning 1^> iyuli sa mustaqil O'zbekiston yilnomasiga alohida yozilib qoladi. Xuddl ".hit Lini Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikdagi «O'zDm'WON VTO» qo'shma korxonasi ish boshladi. Ayni paytda Samarqandtlit urkiya ishbilarmon avtomobilsozlari bilan hamkorlikda «SamKochavloe >\shma korxonasining ish boshlaganligi O'zbekislon tarixida navbaltl.tjti irik voqea bo'ldi. Bu korxona mamlakatimizga yo'lovchilar tnshlstiy.ii o'ljallangan «Oloyo'l» mikroavlobuslarini yetkazib bera boshlmll,




lHHoNiiiiniii" avlomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi lashkil It tiiiiitiliik.il luidudlarida ish boshlagan 36 yirik va o'rta korxona tin kuiiipiiuiyjilarga legishli mahsulotlar chet ellarga ham eksport dt h<• hi.mill I O'M-yilning marl oyida mahsulot bera boshlagan WKhi liiivlo- /.avndida ikki yil mobaynida 4000 ta avtobus va 1000 нк «lv loniobili savdoga chiqarildi. Ishlab chiqarilgan avtomobillar |lv iiuiiiiliikiillarga, jumladan Rossiyaga eksport qilindi.

Нины, inamlakalimiz shaharlarida avtokorxonalarning ishga lull in nvlolransport vositalarining ko'payishi respublikamiz i Ititlin i \ ,t vo'llarini kengaytirish, qurish, asfaltlash, zamonaviy texnik iHiii dura jasiga keltirishni taqozo etdi. Bu vazifa ham bajarildi va tihitiilinil/ hududlarida hamon yo'l qurilish ishlari davom etmoqda.

1[1] #I•• !• .ivioNanoalining vujudga kelishi ayni paytda ko'chalar va lliti qui ill.sliini hamda ularni boshqarishda yangicha munosabatni ill. iili Ayni bu vaqtda transport qatnovi lig'izlashib borgani mustaqil In khliHining gcografik va iqtisodiy holatiga mos, tabiiy icq I i ini i\• • 11111ill.in kelib chiqqan holda yangi «Yo'l harakati qoidalari»ni \ fii,Inn luqozo etardi. Shu hois O'zbekiston Respublikasi Va/.irlar iii iiinsiiilng 2000-yil 1 l-dekabrdagi qarori bilan 2001 -yil I mni idini ttlnhillini/ kn'chalari va yo'llarida yangi «Yo'l harakati qnidalnrU \ I'llldi. O'/bekislon Respublikasi Oliy Ma jlisining sessiyalai Idim •l.i i".yo'l harakati xavfsizligi to'g'rlsida qonun qabul qillndl



"I II| Hill ,II III фЖШШП»
Inuispoi t vnillalai I, yo'lovchilar, piyodalai liaial .1 Hmi larlibga solish bilan birga iiiili yo'l-transport hodisalarining oldini olish omili hamdir. Qoidalarga iloat elgan holda harakatlanish, yo'l belgilari va ko'rsatgichlarga rioya etgaii holda harakatlanish har bir haydovchi va piyodaning burchidir.

Jumladan, mazkur qoidalarning 1. «Uraumiy qoidalar» bo'limida shunday deyiladi:

«1.1. Ushbu «Yo'l harakati qoidalari» respublika hududidagi yo'llarda harakatlanishning yagona tartibini belgilaydi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi yo'llarida transport vositalarining o'ng taraflama harakatlanish tartibi belgilangan.

1.3. Yo'l harakati qatnashchilari «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, ushbu Qoidalarni va unda keltirilgan svetofor ishoralari, yo'l belgilari (1-ilova), qatnov qismidagi chiziqlar (2-ilova)ning o'zlariga tegishli bo'lgan talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek, o'zlariga berilgan huquq doirasida yo'llarda harakatni boshqarayotgan tartibga soluvchilarning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishlari shart».

Bundan «Yo'l harakati qoidalari» Respublikamiz hududidagi barcha ko'chalar va yo'llarda harakatlanishning yagona tarlibini belgilaydigan vosita, degan xulosa chiqarish lozim. Tartibga rioya qilinmagan va amaldagi qonunga itoat etilmagan joyda yo'l-transport hodisasi yuz beradi, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi, kishilarga jiddiy tan jarohati yetkazuvchi va hatto o'limga olib keluvchi voqealar yuzaga keladi.

1999-yilning 19-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilgan. Bu qonunda yo'l harakati ishtirokchilari — haydovchilar va piyodalar, korxonalar va tashkilotlar jamoalarining ko'chalar va yo'llarda harakatlanish davomidagi burch va majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Amaldagi qonunga ko'ra «Yo'l harakati qoidasi»ni buzgan, davlat va jamoat mulkiga zarar yetkazuvchi, insonlarning salomatligiga jiddiy ta'sir etuvchi yo'l-transport hodisasini keltirib chiqargan shaxslar jazolanadi. Masalan, insonning bevaqt hayotdan ko'z yumisliiga sabab bo'lgan yo'l-transport hodisasi sababchisi qamo(| jazoMga hukm etiladi. Moddiy zarar keltirgan kishilar turlicha jarinnil.ny,i lot liladilar,



ЧППИШЩПСК, mil null I'll iini44M.fi, . . . .. . .. . . . .—i i
i llliiililar.

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarl, yosh nazoratchilar ,.Hinhi a'zolari ko'chalar va yo'llarda turlicha transport hodisalarining hliiiii olishga harakat qiladilar. Ular transport vosilalari qatnovini nii/oral qilish va tartibga solish, haydovchilar va piyodalarning to'g'ri luiiakallanishlari, qoida buzishlarining oldini olish yuzasidan chora-Mdhlrlar qo'llaydilar. Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari erta-vi! kceh ko'chalar va yo'llarda navbatchilik qilib qoidabuzarlikka qniNlii kurashadilar, avtofalokat sodir etib voqea joyidan qochib kelgan haydovchilarni izlab topadilar va ularga qonuniy chora qo'llanadi. Yii'.h nazoratchilar ham yo'l harakatini tartibga keltirish bilan birga plvodalarning kesishmalar, chorrahalardan, o'tish joylaridan bexatar n ub olishlariga yaqindan yordam beradilar. Ularning bunday vazifalarni ,l.lц clishi jamoatchilik asosida bo'lib, ko'chalarda baxtsiz hodisalarning iildlni olishda qo'l keladi.

liunga misollar keltirib o'tish joiz. 2012-yilda respublikamiz bo'yicha 4K<) la yo'l-transport hodisasi ro'y bergan. Shuning bir qismi bolalar l.hlirokida sodir bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, joylardagi o'rta iitiiiiitiia'lim maktablarida «Yo'l harakati qoidalari»ni o'qitish-o'rgatish i.hi.hi lalab darajasida emas. Maktab o'quvchilarining «Yo'l harakali i|uidalari»ni mukammal bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari muhimdir. ( liuiiki, yo'l-transport hodisalarining oldini olish xalqaro miqyosdagi ilol/.n b vazifaga aylangan hozirgi kunda maktab va maktabgacha tarbiya miiassasalarida bolalarga ko'chada yurish madaniyatini o'rgatish, ularni amaldagi qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash lozim.

kallalar va bolalarda ko'chada harakatlanish tartib-qoidalarlga qal'iy amal qilish ko'nikmasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, albalta. ()'i|i.sh, o'rganish va unga amal qilish baxtsiz hodisalarning oldini olish ilNOSidir.

Savol va topshiriqlar:

I Respublikamizda yangi tahrirdagi «Yo'l harakati qoidalari» qachon qabul (|ilingan va qaysi vaqtdan boshlab hayotga tatbiq etilgan?

I. «Yo'l harakati qoidalari»ning maqsad va vazifalari nimalardan Iborat?

Yo'l-transport hodisalari nima sababdan yuz beradi?

4. O'zingiz yashab turgan hudud, mahalla, qishloq ko'chalari, yo'llari haqida gapirib bering.

5. Yashash joyingizdagi ko'cha va yo'llar holatini aks clliruvihl rasmlar chizing.

# Y O ' L   E L E M E N T L A R I




Mamlakatimiz shahar va tumanlarida transport vositalari ko'payib borgani sari yo'llarning tarmoqlari va holatiga e'tibor kuchaydi. Shu nuqtai nazardan yo'lning aslida nima ekanligini, u qanday turkumlarga bo'linishi haqida aniq tushunchaga ega boiish foydadan xoli emas.

Yo'l bu transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan yer mintaqasi yoxud sun'iy inshoot yuzasi. Yo'l o'z ichiga avtomobil yo'llarini (umumiy foydalanishdagi va idoraviy avtomobil yo'llarining) shaharlar, shaharchalar va qishloq yo'llarini, shuningdek, shahar elektr transporti yo'llarini oladi. Birgina mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrining o'zida katta masofani egallagan tramvay yo'li mavjud. Bu yo'ldan kuniga minglab odamlar o'qish va ishga borib keladilar. Shuningdek, transport vositalarining yirik tarmog'i hisoblangan metropoliten, temir yo'l ham katta ahamiyatga ega. Tramvaylar hamda poyezdlar qatnovchi yo'llarga beton shpallar yotqizilgan bo'ladi. Turlicha avtomobil yo'llari esa asfaltlangan, toshli va tuproqli bo'lishi mumkin. Tekis qoplamali yo'llarda harakatlanish tuproqli va o'ydim-chuqur yo'llarga nisbatan ravon kechadi.





Yo'llar — xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik turlarga bo'linadi. Mahalliy ahamiyatga

1



C^rf rjX*



MIHIIII yn'llarda maxsiis yo'lkalar i". Un, ill,it' asosan piyodalar iittliimi uchun mo'ljallangandir. It' liitti va yo'lkalar piyodalar, ммц1нн|1аг aravachasi qatnoviga Iic.hlirilgan bo'ladi. Piyodalar mi yo'lovchilarning maxsus •i|iiiIllgan yo'lkalardan, o'tish |Hvliiiidaii tashqari yo'llardan \ iiil'.lign, harakatlanishlariga itis.nl etilmaydi. Transport vii*llnlari uchun ajratilgan va uliiitl.i hech qanday kesib o'tish i" l/ r.i ho'lmagan joylardan o'tish hiiyol uchun xavflidir. Qoidaga Nihil laizda harakatlanish yo'l-transport hodisasining sodir bo'lishiga, I i-.hllarga turlicha tan jarohati yetkazilishiga va hatto o'lim hodisasiga liniii olib kclishi mumkin.

Yo'l harakati qoidalari»ning 2-bobida avtomagistral 5.1 bclgi bilan Im 1,-llangan yo'l, deb ta'riflanadi. Mazkur yo'l avtomobil transporting omqini, bosh katta yo'li hisoblanadi. Avtomagistrallarda piyodalar, ny liiis vonlari, ot-aravalar, velosipedlar, mopedlar, traktorlar va o'zi yurar ndi'.liinalar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko'ra tezligi soatiga К» kilometrdan kam bo'lgan transport vositalarining harakatlanishi i|i»ldaga muvofiq taqiqlanadi. Shuningdek, ruxsat etilgan to'la vazni I 'i lonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillariga birinchi va ikkinchi



ho'laklardan boshqa ho'laklarda harakatlanishi maxsus to'xtab turish maydonchalaridan boshqa joylarda to'xtash; ajratuvchi bo'lakning texnik uzilish joylariga kirish va qayrilib olish; orqaga harakatlanish; transport vositasini o'rganish uchun boshqarish mumkin emas. Qatnov qismida majburiy to'xtaganda haydovchi transport vositasini Qoidalarning 9-bobi talablariga muvofiq belgilashi va bunday holatlar uchun mo'ljallangan bo'lakka (qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o'ng tomonga) olib chiqishning barcha choralarini ko'rishi kerak. Tuproqli yo'lga nisbatan qattiq qoplamali (asfalt va sement betonli, tosh yotqizilgan va shunga o'xshashlar), kesilayotgan yoki tutashgan yo'lga nisbatan yo'l, yoxud yondosh hududdan chiqadigan yo'lga nisbatan har qanday yo'lga esa asosiy yo'l deb aytiladi. Ammo shuni esda tutish kerakki, boshqa yo'llarning, masalan, ikkinchi darajali yo'lning bevosita chorrahaga tutash qismining qoplamali bo'lishi uni asosiy yo'l bilan teng huquqli qilmaydi.







Avtomobil yo'lining temir yo'l bilan kesishgan joyi «Temir yo'l kesishmasi» deb ataladi.

Temir yo'l kesishmasi yo'lning temir yo'l bilan bir sathda kesishgan joyi hisoblanib, undan maxsus o'tishga ruxsat etuvchi belgilar, svetoforning yashil chirog'i yonganda, temir yo'l nazoratchisining o'tishga ruxsat etuvchi ishorasi bo'lgandagina kesib o'tish mumkin. Shlagbaum tushirilganda, maxsus svetoforning qizil chirog'i yonganda ogohlantiruvchi ishoralar berilganda kesishmada harakatlanish qat'iyan man etiladi. Qoidani buzganlarga ma'muriy va jinoiy jazo choralari qo'llaniladi



Л/1/ o'(|uvchilar! Siz I- publikamizning shahar va • 1lмl1!• »il1;iri, luman markazlarida, alii ill liu a rjoy larida piyodalar uchun iiiii - MIS (|ainov bo'lagi — piyodalar MI'lkisi ho'lishini yaxshi bilasiz. Vn'lning qatnov qismiga tutashgan \ nh undan maysazor, ariq, им MIS lo'siqlar bilan ajratilgan MI piyodalarning harakatlanishi iM'liiin mo'ljallangan qismiga PIYODALAR YO'LKASI deb avliladi. Bu yo'lka fuqarolarning hiiiisporl qatnovi uchun >lin ilgan ko'chalar, yo'llardan viirmasliklari, qolaversa, ularning 4alai(lan xoli harakatlanishlari iii linn qurilgan bo'lib, undan pivodalar, nogironlar aravachalari n'li-.lu miimkin. Yo'lkalarda birov-hiiovga xalaqil bermay yurishi, in si(| (|o'ymasligi, o'ydim-chuqur liol.ilga keltirmasligi, yugurib Mirniaslik, velosiped yoki moped in hmaslik, xavf soluvchi o'yin n'siiamaslik lozim. Piyodalar vo'lkasi — jamoat qatnov joyi. Driiiak, lining orasta va ravonligi, laiiibliligi piyodalar xavfsizligi in IIIIII muhimdir. Bunday yo'lkalar ho'lmagan joylarda esa piyodalar -Yo'l harakati qoidalari»da hclgilangan ko'rsatmalar asosida Iran,sport qatnovi uchun ajratilgan yo'llardan harakatlanadilar.








Yo'l asosiy va ikkinchi darajaIi (|alnov qismiga ega ho'lih, ularning ko'pchiligida marzalar yolqizilgan, yo'lkalar ajratilgan bo'ladi. Agar yo'llarda marza yoki

yo'lkalar bo'lmasa (|alnov qismida piyodaning yurishi xatarli, hunda belgilarga e'tiborni kuchaytirgan holda harakatlanish zarur. Nazorat qilinmayotgan yo'lda tovush va yorug'lik signalizatsiyalari yo'q bo'lsa, haydovchi kesib o'tiladigan yo'lga olib boruvchi har ikki yo'nalishni ko'zdan kechirishi va hech qanday xavf yo'qligiga to'la ishonch hosil qilganidan keyingina harakatni davom ettirishi mumkin.




Qo'riqlanadigan kesib o'tish yo'liga yaqinlashganda shlagbaum yopiq yoki yopilayotgan bo'lsa, transport vositasini shlagbaumga 5 meti qolganda to'xtatish zarur. Yaqinlashib kelayotgan poyezd, lokomotiv yoki drezinani o'tkazib yuborish uchun haydovchi relsga 10 meli qolganda mashinasini to'xtatishi lozim.

Shahar, aholi turar joylaridagi sanoat, madaniy-maishiy binolar yoki bog'lar oralab o'tgan qatnov bo'lagi ko'cha, deb ataladi. Ko'chalar va yo'llarda harakatlanishni osonlashtirish uchun maxsus belgilardan tashqari yotiq va tik chiziqlar ham bo'ladi. Yotiq chiziqlar yo'lning qatnov qismidagi tartibni belgilaydi. Yo'l yuzasidagi yotiq chiziqlar oq rangda bo'ladi. Tik chiziqlar esa yo'l inshootlari va jihozlari yuzalariga ketma-ket chizilgan yo'l-yo'l oq-qora chiziqlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning o'lchamlarini ko'rsatishda, ko'z bilan chamalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Yotiq va tik chiziqlarning harakatlanishdagi vazifalari alohida ahamiyatga ega.

Yo'llar bir va ikki tomonlama harakatli bo'ladi. Bir tomonlamali yo'llarda harakatlanishning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tezlikni belgilovchi, qayrilish va burilishni, piyodaning o'tishi yoki o'tish mumkin emasligini ko'rsatuvchi va boshqa muhim belgilar o'rnatilgan bo'ladi. Ikki tomonlamali yo'llarda ham maxsus belgilar bo'lib, ular haydovchiga yo'nalish hamda harakatlanish tartibini ko'rsatib turadi.

Yo'llarni yaxshi bilish va qoidalarga amal qilgan holda ularda harakatlanish ko'chada yurish madaniyatining bir belgisidir.



Sitvol va topshiriqlar:

I Si/ yo'l elementlari haqida nimalarni bilasiz?
) Avtomagistral deganda nimani tushunasiz? U haqda gapirib bering vи niNinini chizing.
» Asosiy yo'llarga nimalar kiradi?
I Piyodalar yo'lkasi nima va u qanday maqsadlarda qurilgan?
1 Piyodalar yo'lkasi bo'lmagan joylarda qanday harakatlanish lii/lniV
(i Yo'l va yo'lkalarning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi iihnmiyalini gapirib bering.

# CHORRAHA VA UNING TURLARI

Mnhlaram o'quvchilar!

Mamа siz yo'l va uning turlari bilan tanishib oldingiz. Endi siz bilan •Inn nihil va uning turlari haqida suhbatlashamiz.

Ilunda avvalo, chorrahaning o'zidan qanday maqsadlarda foydalanish inkinligini bilib olishingiz zarur bo'ladi.

( hoi i aha — yo'llarning o'zaro bir sathda kesishadigan, tutushadigau и nyriladigan joyi. Xo'sh, chorraha chegarasini oldindan qanday •1llkdljnll miunkin? — degan savol tug'ilishi tabiiy. Chorraha chegarasi niiiiif' markazidan qatnov qismlari oxiridagi qarama-qarshi tomonlarning •иг uzoqroqdagi burila boshlagan |oylarlni lnlashtiruvchi xayoliy •Iil/iqlai bilan aniqlanadi.Yondosh Itiidiidlardan chiqish joylari i hoiniha hisoblanmaydi.



•ШШШ chorraha

("horrahalar ikki turga bo'linadi. I Jtrllbga solingan va tartibga nollnmagan chorrahalar.

Yo'l harakati svetofor yoki litrllbga soluvchining ishoralari orqali boshqarilayotgan chorraha lartibga solingan chorraha hlsoblanadi.




Chorrahalar «Y» simon, «X» мlшоп, «T» simon shaklda, itch, lo'rt, ko'p tomonli maydon

ko'rinishida bo'lishi Iwitit muinkin. Chorraha yuzldagi belgilar (chiziqlar) harakatlanishni tartibga soladi, piyodalarning o'tish joylarini ko'rsatib turadi. Belgilar qo'yilmagan taqdirda svetofor chiroqlari yoki tartibga soluvchining ishoralariga qarab piyodalar harakatlanadilar.

Miltillovchi sariq ishorada svetoforlar ishlamayotgan yoki tartibga soluvchi boimagan chorraha tartibga solinmagan chorraha hisoblanadi.

Chorrahadan o'tayotganda qoidalarda belgilangan tartibga rioya etish, o'tish ishoralariga qarab harakatlanish zarur. Maxsus belgilar, yo'l chiziqlari, svetofor va harakatni boshqarib turuvchi nazoratchining ishoralari chorrahada muhim ahamiyatga egadir. Bunda haydovchining vazifasi nimadan iborat?

Haydovchi chapga yoki o'ngga burilayotganda yo'lning qatnov qismidan o'tayotgan piyodalarga, shuningdek, velosiped yo'lkasidan yo'lni kesib o'tayotgan velosipedchilarga yo'l berishi kerak. Tirbandlik tufayli to'xtashga majbur bo'lgan haydovchi, agar u ko'ndalang yo'nalishdagi transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik tug'diradigan bo'lsa, uning chorraha yoki qatnov qismlari kesishmasiga kirishi taqiqlanadi.

Miltillovchi sariq ishorada svetoforlar ishlamayotgan yoki













чгнЬцп soluvchi ho'lmagan i InMII a haydovchilar i ullhgll solinmaydigan chorra-ludiitdan o'tish qoidalariga, >Innniha a o'rnatilgan imliyoz bt'lgllariga amal qilishlari shart. Sn'-.li, imliyoz deganda biz alumni lushunishimiz kerak? Ilili oling, imliyoz mo'ljallangan vii'nnlishda boshqa yo'l harakati lalnnshchilariga nisbatan oldin Inii.ikatlanish huquqi, degani. Iliindii imliyoz belgilari muhim iliamiyatga ega bo'lib, piyoda va \n'liivi hilarning chorrahani kesib ril.lilai ida yordam beradi.

chorraha



Лjj.iii c'tibor bergan bo'lsangiz Inn akallanishni boshqarish va larlibga solib turish uchun chorrahada svetofor, belgilardan tashqari n,i ••-.и', chiziqlar ham bo'ladi. Ulardan biri yotiq chiziq. «Yo'l harakati I'tldal.ui 'tla belgilangan va oralari shu chiziqlar bo'yicha teng bo'lgan ii/inj u/ii(| chiziq chorrahadagi harakatlanish bo'laklarini bildiradi. Bu iHi'laklar, ya'ni chiziqlarga e'tibor bermaslik mumkin emas. Bundau la .liqari enli uzuq-uzuq chiziq tezlanish yoki sekinlanish bo'lagi bilan su'lning harakatlanish qismidagi asosiy bo'lagi o'rtasidagi chegarani lilldiradi. Bu chiziqlar chorrahalarda, yo'lning turli sathda kesishgan Ir.in 1.11 ida, avtobuslarto'xtaydigan |i»vlarda bo'ladi va h.k.




Yo'lning qatnov qismi yuzasidagi \'»h(| chiziqlar, ishoralar, yozuvlar •i boshqa belgilar harakatlanish i niihiiii bildiradi. Tik chiziqlar .a yo'l inshootlari va jihozlari vuzalariga ketma-ket chizilgan vo'l-yo'l oq-qora chiziqlar ma jmuasidan iborat bo'lib, ularning rlchamlarini ko'rsatishda ko'z bilan chamalash vositasi sifatida Klzinat qiladi.






To'xtash chizig'i. Qoidaga ko'ra bu chiziqlar chorrahalariln piyodalarning o'tish yo'llari oldiga chiziladi. Avtomobil haydovchisi, nototsiklchi va velosipedchilar moped yoki ot-arava haydovchilar ami shu chiziqda to'xtab, chorraha svetofor signali yoki yo'l nazoratchisl :ayoqchasi bilan o'tishga ruxsat bermaguncha kutib turishgn najburlar.



Chorrahalarda svetoforlarning ihamiyati katta. Ular yo'l haracatini boshqarishda qo'llaniladi. Svetoforlar chorrahalarda piyodalar o'tish joylari va boshqa ser}atnov, odamlar bilan gavjum joyarga o'rnatiladi.

Chorrahalardagi barcha svetoforlar avtomatlar va ilektron asboblar yordami bilan 50shqariladi. Agar haydovchi jelgilangan tezlikka rioya qilsa, u lolda to'xtamasdan chorrahalarni cesib o'ta oladi. Bu ramziy ma'noda <Yashil to'lqin» deb ataladi.



Chorrahalarda transport va )iyodalar harakatini tartibga ;oluvchi ham boshqarib boradi. Tartibga soluvchi avtomobillar jqimini kuzatar ekan, ularning

I f j M h qolmasligl uchun Мини hlrliu hi navbalda o'tkazib fubuii'ili lo/iniligini o'zi tanlaydl. ' t|tt'l lavoqehasi yoki maxsus yordamida buyruqlar iu (и.и llunday holda barcha 1ми >1" (hilar va piyodalar faqat ihHII'im soluvchining ishorasiga 1*91 \ iiuil'.hadi. Shu sababli ularni t* ln hilish va unulmaslik kerak. I |ii \ dm ('hilar va piyodalarga nisliiiliin lining liar bir xatti-harakati hvHmIiii ning biron signaliga mos Mmli Agar svetoforlar ish-i.IV((||miiiI.i chorrahaga tartibga



<ttiln . In n.i/oratchi chiqsa, u holda harakatning barcha qatnashchilari fi\idinobillar haydovchilari hamda piyodalar svetofor signallaridan и faqat nazoratchining tayoqchasiga qarab harakat qilishlari IMSIIII

Ми .o / bilan aytganda chorrahalarda piyodalar va haydovchilarning i т.1.1\ harakatlanishi svetofor va tartibga soluvchining faoliyatiga Img'llq,

Muvol va topshiriqlar:

( l i horraha deb nimaga aytiladi?
, i £ i horrahada nima ko'proq muhim ro'l o'ynaydi?
-4 » < horraha svetofori nechta bo'lishi mumkin?
I Svetofor va uning vazifasi haqida gapirib bering.
* I arlibga soluvchining vazifasi qanday?
h Agar svetofor ishlamay qolsa, piyoda yoki haydovchi qanday yo'l IIIIIHII?
/ ( horraha, svetofor aks ettirilgan rasm chizib, sharhlang.
M Yo'l chiziqlari haqida gapirib bering.

M
c A R H O D Mi
KUTI i n v m IЛr\i

^FARHO )" MS I
i/i iti mvnMAQH

# YO'LNING QATNOV QISMIDAGI BELGILAR (CHIZIQLAR). PIYODALARNING YAKKA, GURUH VA JAMLANMA BO'LIB HARAKATLANISHI

Aziz o'quvchilar!

Avvalgi dars mashg'ulotimizda yotiq va tik chiziqlar haqida qisqach to'xtalib o'tgandik. Bugungi darsimizda mazkur mavzu haqida batafsilroi| to'xtalamiz.

O'zingiz yashab turgan shahar yoki tuman markazlari ko'chalai va yoilarida, shuningdek, turlicha yo'l qurilmalarida (ko'priklai estakadalarda, tonnellarda) turlicha yozuvli chiziqlarni va oq, sarii rangdagi belgilarni ko'rishingiz mumkin. Bu chiziqlar va belgilar yo' chiziqlari, deb ataladi. Ular haydovchilar va piyodalarga harakatlanisl yo'nalishini ko'rsatib turadi. Shu bilan birga yo'l harakati xavfsizligiui ta'minlashga yordam beradi. Chiziqlar yotiq va tik bo'lishi mumkin Ko'chalar va yo'llarning qatnov qismidagi chiziqli belgilar yotiq chiziq deb ataladi.

Avvalo, yotiq chiziqlar haqida fikr yuritsak. Bu chiziqlar harakli xavfsizligini ta'minlashda, transport vositalarining qoidali harakatlanislu tartibni saqlashda o'ziga xos salmoqli o'ringa egadir.Yo'l yuzasidag yotiq chiziqlar oq rangda bo'ladi. Chiziqning vazifasi quyidagicha:

1.1 — qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transpor oqimlarini ajratadi, yo'lning xavfli joylaridagi harakatlanish bo'lagi chegarasini bildiradi; yo'lning kirish taqiqlangan qismini anglatadi; transport vositalarining to'xtab turish joyi chegarasini hamda avtomagistrallar qatoriga kiritilmagan yo'lning harakatlanish qismi chega-rasini bildiradi.




1.2 — (enli sidirg'a chiziq) — avtomagistrallarda harakatlanish qismi chegarasini bildiradi.

1.3 — to'rt va undan ortiq










К „ .. . . . ., h bo'lagi bo'lgan 10 ▌*« • * 11 • qarama-qarshi ill nnllnbtlagi transport vositalari iH|lMtini njraladi.

I t lo'xtash taqiqlangan Mini bildiradi. Vakka holda yoki t П lo'xtash taqiqlangan» yo'l 1*• Ijii'ii bilan qo'llanadi hamda V" Iniiii' harakatlanish qismi I In 11 a yoki yo'l chelidagi to'siq I\ in > intidan chiziladi.

I • ikki yoki uch bo'lakli pi'llmila qarama-qarshi jjn'niillUlanla harakatlanayotgan **11 an 1"** и **i** vositalari oqimlarini mli ЫГ yo'nalishda haial illanish uchun mo'ljallangan «и, yoH ko'proq bo'lakli yo'llarda bo'laklarning chegaralarini

Hi (yaqinlashish chizig'i — har bir chiziq uzunligi ular orasidagi им nl,hI,in ni b barobar katta bo'lgan uzuq-uzuq chiziq) — qarama •i n In yoki bir yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari iM|lnil'arlni ajratuvchi 1.1 yoki 1.11 chizig'iga yaqinlashayotganlik haqida •ijHililanllradi.



I 7 (har bir chizig'i qisqa vii oialari shu chiziqlar bo'yiga тис bo'lgan uzuq-uzuq chiziq) «horrahadagi harakatlanish In. i,it 1,'nan bildiradi.

I H (enli uzuq-uzuq chiziq) Iczlanish yoki sekinlanish bn'lagl bilan yo'lning harakatlanish .|i inldngi asosiy bo'lagi o'rtasidagi •In garani bildiradi (chorrahalarda, lo'lfllng lurli sathda kesishgan i|hinlarida,avtobuslarto'xtaydigan |iiylai'da va liokazo).



I '> — reversiv harakat-l.iiiisbda qatnov qismining i hognrasini bclgilaydi; reversiv

harakatlanish ainalga oshirilgan yo'llarda (reversiv svetofori o'chirilgan holatda) qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimini ajratadi.

1.10— to'xtabturishtaqiqlangan joyni bildiradi. Yakka holda yoki 3.28 yo'l belgisi bilan qo'llanadi va yo'lning harakatlanish qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siq (bordyur) ustidan chiziladi.

1.11 — faqat biror bo'lakka qayta tizilishga ruxsat etadi, bir yo'nalishdagi yoki qarama-qarshi kelayotgan transport oqimlarini ajratadi: qayrilib olish, to'xtash maydonchalari va shunga o'xshashlarga kirish uchun mo'ljallangan joylarda manyovr faqat bir yo'nalishda ruxsat etilganligini ko'rsatadi.

1.12 — (to'xtash) — 2.5 belgisi yoki svetoforning (tartibga soluvchining) taqiqlovchi ishorasida haydovchi to'xtash kerak bo'lgan joyni ko'rsatadi.

1.13 — kesishgan yo'lda harakatlanayotgan transport vositasiga yo'l berish zarur bo'lganda, haydovchi transport vositasini to'xtatishi lozim bo'lgan joyni ko'rsatadi.

1.14.1. — («zebra») — yo'l harakati tartibga solinmagan qismida piyodalarning o'tish joyini belgilaydi.

1.14.2 — belgining ishorali yo'naltirgichlari piyodalarning harakatlanish yo'nalishini ko'rsatadi.














I 14.3 piyodalarning harakati **TVT'lofor** yordamida larlibga millrtyanini bildiradi.

II5 — yo'lning velosiped solknsi kesib o'tgan joyini blldlrndi.

1,16.1 — 1.16.3 — transport vositalari oqimi ajraladi-j'iiii yoki qo'shiladigan joylardagi vo'italliruvchi orolchalarni bildiradi

I I7 belgilangan yo'nalishli h ,nr.pori vositalari to'xtash joylari li.inula laksilarning to'xtab turish loylai ми bildiradi.

I IN chorrahada bo'laklar bn'vuha ruxsat elilgan harakat-l iiii-.li yo'nalishlarini ko'rsatadi. Уаккн holda yoki 5.8.1,5.8.2 I" Þ*11.111 bilan qo'llanadi. Oxiri I'.it yo'l lasvirlangan chiziq, shu So'lndi'.hd.igi yon tomonda joy-l,i ,li}',in q.iluov qismiga burilish ta->|h|liiii) iiilif.ini ko'rsatadi. Chetki • li.i|> bo'l.ikdau rhapga burilishga ins ..il beruvehi yo'naltirgich shu Im'lakdan qayrilishga ham ruxsat ha adi.

I I') harakatlanish qismining lornygan, (shu yo'nalishdagi harakatlanish bo'laklarining '.oni kamaygan) joyiga yoki qaraina qarshi yo'nalishdan krlayotgan transport vositalari oqlmlarini ajratuvchi 1.1 yoki 1.11 i hi/.ig'iga yaqinlashganlik haqida ogohlantiruvchi chiziq. Birinchi **holda 1.18.1-1.18.3 yo'l belgilari** bilan qo'llanishi mumkin.












shaklida bo'lib, haydovchini 1.13 chizig'iga yaqinlashayolganidan ogohlantiradi.

1.21 — «STOP» — to'xtang yozuvi 2.5 belgisi bilan birga qo'ilanganda haydovchini 1.12 chizig'iga yaqinlashayotgani haqida ogohlantiradi.

1.22 — yo'l raqamini ko'rsatadi.

1.23 — yo'lning faqat belgilangan yo'nalishli transport vositalari uchun mo'ljallangan bo'lagini bildiradi.






















KAIN^l'im i

1 **IOYDALANISH QOIDALARI**

IniMNporl vositalarining yildan yilga ko'payib borayotganligi iiiiiiiilakalimi/ iqtisodiy salohiyatining oshib borayotganligidan ilitli'lnidii. Transport - laraqqiyotning layanch omillaridan biri. Usiz in.....и va (pirilish, qishloq xo'jaligi va madaniy hayolda ilgari siljish, ii Ishlarning bo'lishini tasavvur etib bo'lmaydi.

11.iiisp«>rt vositalari motor quvvati hamda tuzilishi, foydalanish I ill vazil'alariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Aholini mi Hi 'ilij'.i yetkazib qo'yish maqsadlarida foydalaniladigan shahar ' и hansporti — metro, poyezdlar, tramvaylar, avtobuslar, turlicha hi аимilagi yengil avtomashinalar, mototsikl, moped va velosipedlar. Shim mi korxonalarida, qurilishlarda ishlatiladigan transport vositalari iii lashuvchi mashinalar, traktorlar, skreyper, buldozerlar va h.k. '.liiiiiiiiplok, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan shunday transport и Halari ham borki, ular dala ishlari, xo'jalik yuritish jarayonida •illщи In kuch vositasi hisoblanadi.

krvmgi o'n yil ichida mamlakatimiz transport vositalari tarmog'i, i nii|',ii iviomobilsozlik sanoati o'sdi, taraqqiy etdi. Bu esa shahar ahliga и т .|иni \izmati ko'rsatish salmog'ini oshirdi. Fuqarolarni o'z manziliga n li|M, o'(|ishga va h.k.) eltib qo'yishda shahar transporti (avtobus, ii пи j\ metro poyezd)ning ahamiyati katta. Bundan 102 yil avval i\ I oshkent shahrida asosiy va yagona transport turi hisoblangan

AVTOMOBIL BOSHQARISH
TAJRIBASI 3 YILDAN
OSHIQ

I laydovchilik guvohnomasi ®

S nafar yo'lovchigacha



Haydovchilik guvohnomasi 0 Ф

8 nafar yo'lovchidan ortiq



bo'lsa, endilikda lining turlari juda ko'p. Transport turlarining ko'pligi xizmat sifatini oshirish, vaqtdan unumli foydalanishda muhimdir. Shuningdek, transportdan foydala-nilayotganda «Yo'l harakati qoidalari»da belgilanganidek, tartibga rioya etish, qoida ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish haydovchilarning burchidir.

Harakat boshlanishi oldidan haydovchi avtomobilga chiqish, undan tushish, unga joylashish tartibi haqida yo'lovchilarga tushuncha berishi kerak. Avtomashina yo'lovchilarning xavfsizlik talablariga javob berishi lozim.

Haydovchi o'z boshqaruvidagi transport vositasini to'la to'xtatgach, eshiklarni ochishi, odamlarni tushirishi va chiqarishi kerak. Eshiklar yopilgandan keyingina harakatlanish mumkin.

Avtomobilning kabinasidan tashqarida (bortli yuk, furgon yukxonali avtomobillarda odam tashishdan tashqari), traktorlar va boshqa o'zi yurar mashinalar, yuk tashiladigan tirkamalar, tirkama-uycha, yuk mototsikllari yukxonasida, mototsikllarning konstruksiyasida ko'zda tutilgan joylardan tashqarida, 12 yoshga to'lmagan bolani mototsikl o'rindig'ida va h.k. xavfsizlik talablariga javob bermaydigan holatlarda odam tashish taqiqlanadi.





f Miunlarnl yii к lashuvchi и iiiniohillarning yll к tashish loi'llinlda olih yurish fuqat i toifasidagi avtomobillar bu ,lii|nrish huquqiga ega bo'lgan h m ilovchilarga ruxsat etiladi. O.lainlar soni kabinadagilar bilan qo'shib hisoblaganda «akkiztadan ortiq bo'lsa, «C» va I)» loifasidagi avtomobillarni boshqarish huquqiga ega bo'lgan i, .lui loifadagi avtomobillarni ii. b yildan ortiq boshqargan haydovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Yuk avlomobillari odam tashish uchun qulay o'rindiqlarga ega bo'lishi кi i.ik Odamlar soni kuzovdagi o'rindiqlar soniga teng bo'lishi zarur. Ilnlalarui lashishda esa avtomobillarning oldi va orqa tomoniga «Bolalar riiiiiliini lashish» taniqlik belgisi o'rnatilgan bo'lishi lozim. Bolalar avlohuslarda yoki kajava — yukxonali transport vositalarida katta n Jidagilar kuzatuvida boradilar. Bortli yuk avtomashinalarida kamida iN i kishi kuzatuvchi bo'lishi kerak.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan trans-port vositalari (traktorlar, komhaynlar, tirkamalar va h.k.) odam tashishga mutlaqo yaroqsiz va ularda'odam tashishda foydalanislj xavflidir. Qishloq hayotida «Yo'l harakati qoidalari»ga qat'iy amal qilinmasligi, bortli mashinalar va haydov traktorlari, ularning tirkamalaridan ayniqsa, o'rim-yig'im payllarida odam tashishda foydalanilganda baxtsiz hodisalar kelib . Iiiqadi. Qoidalarda belgilangan talablarga amal qilingan taqdirdaguia vo'l- transport hodisalarining oldini olish mumkin.

Traktorlar va boshqa o'ziyurar avtoulovlarda yuk tashiladlgan lu kamalar, tirkama-uycha, mototsikllarning yukxonasida hamda ularning knnslruksiyasida ko'zda tutilgan joylaridan tashqarida, shuningilrl 12 yoshga to'lmagan bolalarni mototsiklning orqa o'rindig'ida, ııнıv.ıı bolalarni ushlab turuvchi qurilma o'rnatilmagan yengil avtomashinalai da tashish taqiqlanadi.

Bu talablar qishloq xo'jaligi hududlariga ham tegishlidir. Bahoigi ckish vaqtlarida, yozgi, kuzgi yig'im-terim paytlarida siz ko'pliu ha lirkamali mashinalarda odamlar tashilayotganligining guvohi bo'lgair.i. lielgilangan o'rindiqlari bo'lmagan avtomashinalarda hamda bo'.hqa transport vositalarida odam tashish mutlaqo mumkin emas.

XAVI SI/I IK КЛМЛКІ



12 YO'SHGACHA 12 YO'SHDAN KEYIN

Savol va topshiriqlar:

1. Transport vositalaridan qaysilarini yaxshi bilasiz? Turlari, ulardan foydalanish me'yorlari haqida gapirib bering.
2. Mototsikl va motorollerlardan qanday foydalaniladi?
3. Qishloq transport vositalari va ulardan foydalanilayotganda nimalarga e'tibor berilishi haqida gapirib bering.

# TRANSPORT УA PIYODALAR HARAKATINI TARTIBGA SOLUVCHI VOSITALAR

Bolalar! O'zbekiston Respublikasi yo'llarida o'ng taraflama harakatlanish joriy etilganligini va transport vositalari hamda piyodalarning harakatlanishini maxsus belgilar, chiziqli ishoralar, svetofor chiroqlari va boshqa omillar orqali tartibga solib turilishini yaxshi bilasiz.

Yo'l harakati qatnashchilari «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, «Yo'l harakati qoidalari»da keltirilgan svetofor ishoralari, yo'l belgilari, qatnov qismidagi chiziqlarning o'zlariga tegishli bo'lgan talablarini bilishlari hamda ularga qat'iy amal qilishlari,



VH'IIHKIII harakal na/oratchilari lartihga soluvchilarning lalahlartni * • м/ hajarishlari shart. I laydovchilar ham, piyodalar ham yo'llarda luiiliqalarning hayoliga xavf tug'diruvchi xatti-harakal sodir etmasliklari IH/|III Jismoniy va yuridik shaxslar yo'l qoidalarini buzishga, yo'l iм Ijillnri, svetoforlarni va harakatlanishni tashkil etishning boshqa texnik uiMialarini o'zboshimchalik bilan olib tashlash, o'rnatish, to'sib qo'yish, hikasllantirish, yo'llarda harakatlanishga to'sqinlik qiluvchi narsalarni 'inldiri.shga haqlari yo'q va bu qonun yo'li bilan taqiqlanadi.

Svclofor ishoralari — transporter va piyodalar harakatini tartibga • ilib luruvchi vositalardan biridir. Siz svetoforlarda yashil, sariq, qizil i «⋈ rangli yorug'lik bo'lishini yaxshi bilasiz. Bu rangli yorug'liklarning Il.11 birini o'z vazifasi, ma'nosi bor. Svetofor ishoralari vazifasiga bog'liq i as i.shda doirasimon, yo'naltirgich, piyoda tasviri tushirilgan va X simon kn'i Inishda bo'lishi mumkin.

I >nn.i shaklidagi ishorali svetoforlarda yashil doirali ishoralar bilan I'd '..Hilda joylashgan yashil yo'naltirgich yoki ikkita qo'shimcha tarmoq u.'h.shi mumkin.

Sviitoforning doirali ishoralari:

yashil - harakatlanishga ruxsat beradi;

miltillovchi yashil ishora ham harakatlanishga ruxsat beradi va uning la'sir vaqti tugashi hamda ko'p o'tmay taqiqlovchi ishora yonishi li,K|i(la axborot beradi; yashil ishora o'chishga soniya (sekund)lar i|.nicha vaqt qolganligi haqida axborot berish uchun raqamli tablo qii'llanilishi mumkin;





— sariq - harakatni taqiqlaydi va ishoralar almashuvi haqida ogohlantiradi;

— miltillovchi sariq ishora harakatlanishga ruxsat beradi va tartibga solinmagan chorraha yoki piyodalar o'tish joyi borligidan xabardor qiladi, xavf-xatar haqida ogohlantiradi;

— qizil-shuningdek, miltillovchi qizil ishora harakatlanishni taqiqlaydi;



— qizil va sariq ishoralarning bir vaqtda yonishi harakatlanishni taqiqlaydi va ko'p o'tmay yashil ishora yonishi haqida axborot beradi;

— yo'naltirgich ko'rinishidagi qizil, sariq va yashil rangli svetofor ishoralari ham doira shaklidagi svetofor ishoralari bilan bir xil ma'noga ega bo'ladi. Ular faqat ko'rsatilgan yo'nalishga ta'sir etadi.

Agar tegishli yo'l belgisi bilan taqiqlanmagan bo'lsa, chapga burilishga ruxsat beruvchi yo'naltirgich qayrilib olishga ham ruxsat beradi. Qo'shimcha tarmoqdagi yashil yo'naltirgich ham xuddi shu ma'noni bildiradi:



— qo'shimcha tarmoqdagi ishora o'chirilgan bo'lsa, shu tarmoq tartibga solayotgan yo'nalishda harakatlanish taqiqlanganligini bildiradi;



— agar svetoforning asosiy yashil ishorasiga qora yo'naltirgich (yo'naltirgichlar) ning shakli tushirilgan bo'lsa, u haydovchilarga svetoforning qo'shimcha tarmog'i borligi haqida axborot beradi va shu asosiy tarmoqdagi yo'naltirgichlar yo'nalishlarida harakatlanishga

#ик». 11 berilganliginl ko'rsatadi;

agar svetofor ishorasi piyoda iNivIrl ko'rinishida bo'lsa, u faqat nlvodiilarning harakatiga ta'sir Ii Mladi. liunda yashil ishora pi voda laming harakatlanishiga шии! beradi, qizil ishora esa liiqlqlaydi.

Oaluov qismidagi harakat yo'nalishi qarama-qarshi tomonga н'/garishi mumkin bo'lgan bo'laklarida transport vositalarining Inn akalini tartibga solish uchun X simon qizil ishorali va pastga yo'nalgan vn'imlllrglch ko'rinishdagi yashil hlioralf reversiv svetoforlar i|i)'llaniladi. Bu ishoralar qaysi IH.'LII ustiga o'rnatilgan bo'lsa, Hilda harakatlanishni taqiqlaydi \и! i iuxsal beradi.







I i amvaylarning, shuningdek, l" Igllang.in yo'nalishli boshqa и ни-.purl vositalartning hai akillanlshini, ular uchun ,i|iniil|i,iii niassus bo'lakda tartibga IUIUII ШТ IIIIII I harfi ko'rinishida 111 v li i 11. i ii lu'rtta doirasimon •иI iaii|'li Ishorali svetoforlar qu'lliinlllNhl mumkin.

Nl1111*1ldagi bir yoki bir nechta i pasikl Ishora bir vaqtning 11 /lila N'un^anda, harakatlanishga ius-,,it I'liladi. IJIardan chapdagisi •hapga, o'ngdagisi o'ng tomonga hiiillishga, o'rtasidagi to'g'riga \urlshga ruxsat beradi. Agar faqat vliqoridagi uchta ishora bir vaqtda \uusa, harakatlanish taqiqlanadi.

I emir yo'l kesishmalarida u'rnatllgan doirasimon oq rangli miltillovchi ishora transport vositalarining kesishma orqali harakatlanishiga ruxsat beradi.

Ko'rinisli chegarasida yaqitl-lashib kelayotgan poyezd (lokomotiv, drezina) bo'lmasa, o'chirilgan miltillovchi oq va qizil ishoralarda ham harakatlanishga ruxsat beriladi.




Ma'lumki katta-katta shaharlar, viloyatlar markaziy ko'chalarida harakatni tartibga solib turuvchi inspektorlar navbatchilik qilishadi. Tartibga soluvchining har bir ishorasi ma'lum ma'noga ega bo'lib, ularga haydovchi va piyodalar ahamiyat berishlari zarur. Tartibga soluvchining gavda holati va qo'l harakatlaridan transport vositalari haydovchilari qanday harakat qilisl lozimligini bilib oladilar.

Bolalar! Siz tartibga soluvchilarni ko'proq chorrahalarda, svetofo o'rnatilmagan, ammo transport oqimi va piyodalar qatnovi tig'i joylarda ko'rgansiz. Tartibga soluvchi yoki svetofor bo'lmagan joylard harakatlanish birmuncha murakkablashishini, aytish mumkinki tartibsizliklarga yo'l qo'yilishini ham yaxshi bilasiz. Shunga ko'ra «Yo' harakati qoidalari»da belgilanganidek, svetoforlar o'rnatilgan va tartibg;i soluvchi faoliyat ko'rsatayotgan chorrahalar, bekatlar yoki harakatlanish tig'iz bo'lgan ko'chalar va yo'llarda qonun ustuvorligi, qoidalarning to'k] amal qilinishini ta'minlash har bir kishining vazifasidir!

Savol va topshiriqlar:

1. Transport vositalari va piyodalarning harakatini tartibga solit turuvchi vositalar haqida nimalarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering
2. Svetofor va uning turlari haqida so'zlab bering. Yashil, sariq v£ qizil chiroq ishoralari nimani anglatadi?
3. Tartibga soluvchi ko'proq qayerda turadi? So'zlab bering.
4. Tartibga soluvchi va svetofor ishoralari, yo'l chiziqlari va belgilarig; e'tibor bermaslikning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkin? Fikringizn ayting.

I AKTIIHiA 5ULU У^ nimi^ivj

# ISHORALARI



I If

11 nislili guvohnomasi va belgisi OliiiMlls kiyimi yoki (aniqlik in Ifllnri, qo'l bog'ichi, jezl, qizil Uhiimli yorug'lik qaytargich yoki vniug'lik qaytargichsiz gardish, |i/ili hnoqyokibayroqcha) bo'lgan illllll.iya, harbiy avtonazorat Mihini, yo'ldan foydalanish idorasi Nibii.iti'hisi, temir yo'l kesishmasi, k. t hlivlari (parom) navbatchisi, IIIIIIH.IUhi avtonazoratchi va -•'! harakati xavsizligi xizmati -Mihnn tartibga soluvchidir. U .ih.ilarda, serqatnov va hamma transport vositalari hamda piyodalar id ni gavjum yo'llar, ko'ehalarda, temir yo'l kesishmalari, daryo и in |»и 11 <|atnovi joylarida harakat xavfsizligini ta'minlab turadi. iinii ihn hoshqarishda jezl — ko'rsatkich tayoqchasi yorug'lik I i\ i iriuligan ((izil rangli moslama, hushtak, ovoz kuchaytirgichli va lni iиi i r.lmralar hamda vositalardan foydalanadi. Tartibga soluvchi мы l in \usilalardan foydalanayotganda qoidani buzib o'tganlarni 1ll -i in h ogohlantirish, jarima solish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Jezl

l м i .ilkii h, lo'xtatish, ogohlantirish vositasi. Hushtak - hushyorlik v i i '111____qaratishda qo'l keluvchi vosita. Mazkur vositalar qorong'i i 11 hiila111.1 ham tartibga soluvchining yaqin ish quroli hisoblanadi. Bu •itlhiIni orq.ili u harakatdagi transport vositalari hamda piyodalarga I'lhiHii qil.uli, lo'xtash, o'tish yoki chetga chiqishga ko'rsatma beradi. i iiiiq- ki»'i n.ilniasi «Yo'l harakati qoidalari»ga asoslangan bo'lib, ularni h i|,n maslik 11111иikin emas. Tartibga soluvchining talabiga bo'ysunmaslik .|niil,ilaiin hiinnal qilmaslik, «Yo'l h.n.ik.ili xavfsizligi to'g'risida»gi [1] i /Ik I islonRespublikasiQonuniga ill \alli harakallarsodiretishbilan hambardir. Tartibga soluvchining i-iivda holati, qo'l harakati bilan liruuligan ishoralari transport \iisilalari va piyodalarning keyingi



hnrnkntlanish jarayoniga yo'nalish beradi. Bu yo'nalishning lo'g'ri belgilanishi tartibga soluvchining jezl, yorug'lik qaytaradigan qizil rangli moslama, hushtakdan, ovoz kuchaytirgich va boshqa vositalardan o'z vaqtida qay darajada foydalana bilishiga bog'liqdir.




Tartibga soluvchining har bir ishorasida ma'no bor. Ular quyidagicha:

— qo'llari yon tomonga uzatilganda yoki tushirilganda, chap va o'ng yon tomonidan tramvayga to'g'riga, relssiz transport vositalariga to'g'riga va o'ngga harakatlanishga, piyodalarga qatnov qismini kesib o'tishga ruxsat beriladi. Oldi va orqa tomonidan barcha transport vositalari va piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi;




— o'ng qo'li oldinga uzatilganda, chap yonidan tramvayga chapga, relssiz transport vositalariga barcha yo'nalishlarda, oldi tomonidan barcha transport vositalariga faqat o'ngga harakatlanishga ruxsat beriladi. Orqa tomonidan va o'ng yonidan barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi. Piyodalarga tartibga soluvchining orqa tomonidan qatnov qismini kesib o'tishga ruxsat etiladi;

— qo'lini yuqoriga ko'targanda, Qoidalarning 8.13 bandida ko'rsatilganidan boshqa hollarda transport vositalari va piyodalarning! barcha yo'nalishlarda harakatlanishi taqiqlanadi.

I allhga soluvchi haydovchi VK piyodalarga tushunarli bo'lgan ImhIh|ii ishoralarni ham berishi manikin. Ishoralaryaxshi ko'rinishi hi him larlibga soluvchi jezl yoki tHiiig'lik qaylaradigan qizil rangli HMiftlamalarni qo'llashi mumkin;



I harakatni tartibga solayotgan \nkl xizinat burchini o'tayotgan mlllislya xodimi transport vositasi liiiydovchisiga qarata qo'l i yoki ovoz kuchaytirgichli i|iuilni.i orqali transport vositasini In'siahshni lalab qilishi mumkin. M ivdovchi esa ko'rsatilgan joyda in к hishi kerak;



vn'l harakati qatnashchilarining e'tiborini jalb etish uchun hushtak lhl hi i|h .lumcha ishora berilishi mumkin.^

'и, iiilorning qizil, sariq va yashil ishoralari tartibga soluvchining har lui I'.lini a-aga mos keladi. Svetofor ishlamagan joyda tartibga soluvchining ни li.n.ikiii va ko'rsatmalariga qat'iy amal qilish shart bo'lganidek, vi ihI.h i liiroqlariga rioya qilish, ularga yarasha harakatlanish ni.i|l'iiuv'In Avlomashinalarning svetoforning qizil chirog'ida o'tib i • ii in biisliqa larafdan harakatlanuvchilarga xavf tug'diradi. Qizil • ii....I'l 1 11.1\ ilovchi ham, piyoda ham to'xtab, kutib turishi, yashil ishora hn h Iii hilnu c.a harakatlanishi mumkin. Yashil - harakatlanishga ruxsat i" Ijh .i Sariq esa harakatlanishni taqiqlaydi yoki ishoralar almashuvidan iijiiihlaiiliiadi. Ihi haqda avvalgi dars soatlarimizda batafsil to'xtalgan •'ill I aqat shuni (|o'shimcha tarzda aytib o'tish joiz: tartibga soluvchi 111.|>i к lot ishorasi bilan svetofor ishorasi aynan bir maqsadga, ya'ni и т .pin I vositalari hamda piyodalarning tartibli harakatlanishini tashkil •n .liga hamda harakat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Savol va topshiriqlar:

I larlibga soluvchining ishoralaridagi ma'nolar haqida gapirib lining.

I Svetofor ishoralari va ularga rioya qilish qoidalari haqida nimalarni hllasiz?

3. Tartibga soluvchining ish qurollari, vn/.lfillnt'i haqida gapiril bering.

4. Svetofor ishoralari bilan tartibga soluvchining ishoralai ida qanda farq bor?

5. Svetoforning qizil, sariq, yashil ishoralariga mos holatlar haqid gapirib bering.

6. Svetofor bo'lmagan joyda haydovchi va piyoda kimning ishorasig qarab harakatlanishi kerak?



# У YO'L BELGILARI

Yo'llarda harakatlanishda belgilarjuda katta ahamiyatga ega ekaullt>lnl |n4ilgi dars soatlarimizda aylib o'lgan edik. Endi bu maxsus soahlii и IiIhi inavzuga chuqurroq kirib borishga harakat qilamiz. Chunki м. | I" lyilari harakat xavfsizligini ta'minlashda asosiy omillardan hisohlanadl I n'i'halar va yo'llarda harakatlanish, aytaylik, qayrilish yo burili-.h i[11] lash, lezlik, taqiqlash va boshqa belgilarning bo'lishi sharl. Yn'l In Igilari harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida davlat komissiva i l<niionidan lasdiqlangan «Yo'l harakati qoidalari»ning amaldagi ifoda-.i '•> dalaridan biridir. Yo'l belgilari ogohlantiruvchi, imtiyoz beruvchi, laqlqlovchi, buyuruvchi, axborot-ishora, servis, qo'shimcha axborol I" Igilaridan iborat. Ularni har birining o'ziga xos maxsus ajratilgan k«n va vazifalari bor. Masalan, ogohlantiruvchi belgilar yo'l harakali • liiliiashchilariga yo'lning harakatlanishda vaziyatga qarab chora i n'lishni lalab qiladigan xavfli qismlarining joylashuvi hamda ularning MI .ИMvallari to'g'risida ma'lumotlar berish uchun qo'llaniladi.

Yri belgilari davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektorlarining hcMiMia ishtirokida yo'l qurilish boshqarmalari xodimlari tomonidan к n't ha larva yo'l largao'rnatiladi. Transport qatnovi uchun moslashtirilgan l n't halar va yo'llarda yo'l belgilarining bo'lmasligi mumkin emas. Yo'l h. Iplari o'rnatilgan joylarni biron inshoot yo daraxt shoxlari bilan in II) qo'yish, buzish yo o'zgartirish mumkin emas. Endi, o'quvchilar, • • I belgilari lurlari hamda vazifalari bilan alohida-alohida tanishib • hlqainl/,,

M ih.ihj i do'konga, teatr, stadionga borayotganingizda yo'l Im Ijiil 1lmi iicliialasiz. Ular tiniq ranglar bilan bo'yalgan va uzoqdan I И I т.NH SI/ IKI belgilarning ko'plarini yaxshi bilasiz.

и'Гbelgilari sveloforlar, ko'chalar va yo'llar qatnov qismi bo'laklari . hi/1111,111 singari vazifalarni bajaradi. Ular mashinalar va odamlaroqimi Innakallaiini uazorat elish hamda tashkil etishda yordam beradi.

Itelgilai haydovchilar ishini yengillashtiradi, ularga va piyodalarga vn'l luirakalidagi murakkab vaziyatlarda to'g'ri mo'ljal olishda yordam he I iitli.

I laydovchilaryo'l belgilari ahamiyatini juda yaxshi bilishadi va ulardan nqlloiia foydalanishadi. Shuningdek, asosiy belgilarni velosipedchilai va piyodalar ham yaxshi bilishlari kerak.

Barcha yo'l belgilari yelli guruhga bo'linadi. Ular formada bo'lgani kiihi rangi bo'yicha farqlanadilar. Ularning vazifalarini tezroq anl(|lah

-J........... .p...) • p<< I «•• II» 114 I(I.IIIIIII III.IIIII III

Belgilarning hirinchi guruhi ogohlantiruvchilai I Mai liaydovchilil va piyodalarni bo'lajak xavf to'g'risida ogohlantiradi. Ular yaxsl ko'rinishi uchun xavf belgilangan oraliqdagi joyga o'rnatiladi. Ko'pchili belgilar shakli - qizil hoshiyali oq rangdagi uchburchakda bo'ladi.

Ikkinchi guruh belgilari — daraja belgilari. Ular chorrahalarniu qatnov navbati, shuningdek, ko'chalarning toraygan qismlarid o'rnatiladi.

Uchinchi guruh belgilari haydovchilar va piyodalarning biron bi harakatini taqiqlaydi, shu sababli ularni taqiqlovchilar, deb atashad] Bu belgilar to'q oq rangda qizil hoshiyali shaklda bo'ladi. Amm| shuningdek, qizil yoki moviy rangga bo'yalgan taqiqlovchi belgilar hai bo'ladi.

To'rtinchi guruhga buyuruvchi belgilar kiradi. Ular haydovchilarg ma'lum yo'nalishda harakatlanib, u yoki bu ishni bajarishda imtiyoz ruxsat beradi. Bu belgilar dumaloq, moviy rangda bo'ladi.

Beshinchi guruh belgilari axborot-ishora belgilaridir. Ula haydovchilarga yo'ldagi turlicha holatlar to'g'risida xabar qiladi. B belgilar rasmli va tagso'zli, moviy yoki sariq fonda to'rtburchakli yok to'g'ri burchakli shaklda bo'ladi.

Oltinchi guruhdagi belgilarda turlicha axborotlar, tushuntirishlar ak etgan. Ular haydovchilar va piyodalarga yo'llarda mo'ljal olishga yordat beradi. Masalan, dam olish joylari, yoqilg'i quyish shaxobchalari, tibbi] maskanlar, harakatlanish joylari va boshqalar haqida ishora qiladi Bu belgilar servis belgilari, deb ataladi. Ular to'g'ri burchakli shakldj bo'lib, moviy rangga bo'yalgan bo'ladi.

Yettinchi guruhga transport vositalari oqimi harakatini tartibgi solishga yoki aniqlash, harakat belgilarini kuchaytirishga yordan beruvchi qo'shimcha axborot (ko'rsatkich) belgilari kiradi.

Qoidaga ko'ra barcha yo'l belgilari haydovchilar va piyodalargi yaxshi ko'rinib turishi uchun ko'chalar va yo'llarning o'ng tomonigi harakat yo'nalishi ro'parasiga o'rnatib qo'yiladi.

Yirik shaharlarda va barcha bosh magistrallarda elektr yoritgichli belgilar (ular ichida elektr lampochkalar) o'rnatilgan bo'ladi. Bu belgilai kechki paytlar yaxshi ko'rinadi.

Shuningdek, belgilar tez-tez maxsus nur tarqatuvchi plenkalar bilar qoplanadi. Yaqinlashib kelayotgan avtomobil faralarida ular o'zidan yorug'lik qaytaradi. Buni tun qorong'usida haydovchi yaqqol ko'ra oladi.

Barcha yetti guruhda ko'pgina turli belgilar mavjud. Quyida piyodalar va velosipedchilar uchun bilish muhim bo'lgan belgilarning asosiylarl haqida hikoya qilinadi.

# OGOHLANT1RUVCHI liELGILAR

Ogohlantiruvchi belgilar haydovchiga yo'lning xavfli qismiga ktft||iilir.hayotganligi, xavfning luri va shakli haqida axborot beradi. Mи belgilar aholi yashamaydigan joylarda xavfli yerdan 150-300 metr huiil, aholi yashaydigan joylarda esa 50-100 metr oldin o'rnatiladi. : it in.11 lug'ilganda bu belgilar boshqa masofada o'rnatilishi mumkin. I'lai Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi», «Shlagbaumsiz temir yo'l b< ni-.liiiiii.si», «Bir izli temir yo'l», «Ko'p izli temir yo'l», «Temir yo'l h '.ishmasiga yaqinlashuv».

Ilavdovchi yoki velosipedchi ogohlantiruvchi belgini ko'rgach, o'ta llii'ihvoi bo'lishi, harakat tezligini kamaytirishi kerak. Shunda u zarurat mi ilg.inda xavf paydo bo'lgan joy oldida to'xtash imkoniyatiga ega bo'ladi.

l'ivoda xavfli joyga yaqinlashganda, ayniqsa, ehtiyotkor bo'lishi lo/lni,

## Sill AGBAUMLI TEMIR YO'L KESISHMASI» BELGISI




Hи I" b'l li'miryo'lkesishmasiga iqlli yo'ldagi joyga o'rnatiladi. I[1] ba\dovchilar va piyodalarni i Hi liudiiddan ogoh etadi. H i tin i, bllai kesishmaga • 111111. t-. 11.11 ckanlar, tezlikni I- aulas iiiaililar, agar shlagbaum "l'n| bo'lsa, unga yaqinlashgach to'xtaydilar.

Oi/il yo'l yo'lli oq rangga bo'yalgan yog'och yoki ko'ndalang inclall balk.mi shlagbaum, deb ataydilar. U bilan yo'l to'siladi.

11 mir yo'l kesishmasi shlagbaum bilan to'silib, qizil chiroq signallari \ uqilgaiida piyodalarning o'tishi taqiqlanadi. Poyezd o'tib ketgacb a shlagbaum ko'tarilgandan so'ng kesishmada harakatni boshlash mumkin.

## SHLAGBAUMSIZ TEMIR YO'L KESISHMASI >

llu belgida paravoz tasviri tushirilgan. Belgi haydovchilar va plyo ilalarni yo'lning bir qadar xavfli hududi - shlagbaumsiz temii yo'l H sishmasidan ogoh etadi. Butiday kesishmaga o'ta ehtiyolkorlik bllau

yaqinlashish zarur. Yaqinlashib kelayotgan poyezd shovqini kelayotgan yo kelmayotganligiga quloq solib ko'rish va diqqat bilan chap hamda o'ng tomonga qarash kerak. Poyezd yaqinroqda yo'qligiga ishonch hosil qilingandan keyingina kesishmadan o'tishni boshlash lozim.




Haydovchilar va piyodalarni shlagbaumli va shlagbaumsiz temir yoj kesishmasi yo'lidagi xavf haqida oldindan ogohlantirish maqsadida bj belgilar ikki martadan qo'yiladi: biri temir yo'l tarmog'idan naridaj yo'lga, ikkinchisi temir yo'l tarmog'iga yaqin yo'lga o'rnatiladi.

## «TRAMVAY IZIDAN KESIB O'TISH» BELGIS

Ba'zi turar joy mavzelari va shaharlarda yo'llarni tramvay izlari kesib o'tadi. Ular temir yo'l tarmoqlari singari haydovchi va piyodalar uchun xavflidir. Shu sababli ana shu xavfli joyga yaqinlashib qolinganligi haqida haydovchilar va piyodalarni ogohlantirish maqsadlarida «Tramvay izlarini kesib o'tish» ogohlantiruvchi belgisi o'r-natiladi.



Piyodalar va velosipedchilar yaqinlashib kelayotgan tramvay yo'qligiga ishonch hosil qilganlaridan keyingina tramvay yo'lini kesib o'tishlari mumkin.

## «IKKI TOMONLAMALI HARAKAT» BELGISI

Bunday belgi ilgari bir tomonlamali harakat mavjud bo'lgan, endilikd qaramaqarshi harakatdagi ko'cha yoki yo'l bo'lagiga o'rnatiladi.

Masalan, yo'lda ta'mirlash ishlari ketmoqda. Yo'lsozlar Иагакг butunlay lo'xtab qolmasligi maqsadida yo'lning bo'sh qolgan qismidj

V!ii|llmha ikki lomonlamali t|iilnovgn, harakallanlsh ikki Itn'lrtgldan biriga ruxsal etishadi. Hи lia(|da oldindan «ikki luiiionluiiiali harakat» belgisi bilan Hguhliinllrishadi.



I lnvdovchilar va velosipedchilar yo'lning ana shu xavfli qismida t. /likul kainaytirgan holda alohida ehliyotkorlik bilan yurishlari kerak.

## «YO'L ISHLARI» BELGISI

Yo'llarda yo'l-ta'mirlash ishlari I....i\oig.uiligi uchrab turadi. Bu lnit|tla 1ы\dovchilar va piyodalarni i " I I .hi.т.» belgisi ogoh etadi.




## \ЛVI I I BURILISH» BELGISI

Yo'llarda 1</ lc/. burilishlar и, In ill liuadi Agar ana shu |N\I,П..1,HI I .ilia te/likda yurilsa, и inlalol- И ro'y berishi mumkin: IHIIIII \A olilib kelish ehlimoldan l|/oq cina,s.

Г FU6



X

I luvdovc hilar va velosipedchi-liiini Mivt'li burilishdan ogohlanti-ii'.h maqsadida bir qancha oraliq itiasol'alnrda «Xavfli burilish» hclglsi o'rnatiladi. Unda burilish NO'nalishi ko'rsalilgan.

Г FM6

X I

Ilu joylarda piyodalarning yo'lni kesib o'lishlari xavflidir.

## «SIRPANCHIQ YO'LLAR» BELGISI



Yomg'irli, shamol va qorli havoda ba'zan yo'llarning ayrim qismlari sirpanchiq bo'lib qoladi. Haydovchilar va piyodalarni bunday joylar haqida «Sirpanchiq yo'l» belgisi ogoh etadi. Bu belgini ko'rgan haydovchilar tezlikni kamaytirib, xavfli yo'l hududida alohida ehtiyotkorlik bilan yurishlari kerak. Yo'l chekkasida borayotgan piyodalar ham o'ta hushyor bo'lishlari lozim. E'tiborsizlik qilsalar, ularni kelayotgan mashina bir tomonga surib ketishi hech gapmas.

## «PIYODALAR O'TISH JOYI» BELGISI



Yo'llarda piyodalar uchun qatnov qismini kesib o'tadigan joy ajratiladi. Avtomobillar haydovchilari va velosipedchilarni bu haqda ogohlantirish maqsadida piyodalarning o'tish joylaridan ba'zi oraliq masofalargacha ogohlantiruvchi belgilar o'rnatiladi.

Avtomobillar haydovchilari va velosipedchilar «Piyodalar o'tish joyi» belgisini ko'rishgach, tezlikni kamaytirishadi.

## «BOLALAR» BELGISI




Bu belgi maktablar, bolalar bog'chalari va xiyobonlar, dam olish joylari hamda boshqa bolalar muassasalari oldiga qo'yiladi. U avtomobillar haydovchilari va velosipedchilarni ko'cha yoki yo'lning qatnov qismida bolalar paydo bo'lib qolishi mumkinligidan ogoh etadi.

Avtomobillar haydovchilari va velosipedchilar «Bolalar» belgisini ko'rishgach, yo'lning ana shu qismida o'ta ehtiyotkorlik bilan kamaytirilgan tezlikda o'tishlari shart.

## UK KO'TARILISH» VA «TIK NISHABLIK» BELGISI




и i ,HI yo'llarda tik ko'tarilish va nishabliklar uchraydi. Ularning уи Ми borligi haqida avtomobil haydovchilari va velosipedchilarni «Tik lltl'i и iii It va «Tik nishablik» belgisi ogohlantiradi. Bunday joylarda 11'1h111'i Hilivotkorlik bilan yurish kerak.

## liOSHQA XAVF-XATARLAR» BELGISI

N ii'lliiruing qoyalar turtib ihiqqiiii lailiklari bor joylari lnii|iil.i. • lioshqa xavf-xatarlar» 1* lyi i ii^iihlantiradi. Bu belgini i 4 in haydovchilar tezlikni l ни и in r.lilai i lozim.

Suvol va lopshiriqlar:

I 11>I belgilari nima uchun kerak?
' Yo'l belgilari qanday guruhlarga bo'linadi?
'> Ogohlantiruvchi belgilarning shakli qanday, ular nimalarni anglaladi?
I Nhlagbaumsiz temir yo'l kesishmasi» belgisi nimadan ogohlantiradi? II qnyerda o'rnatiladi?
' • Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi» belgisini chizing. U nimadan ngohlanliradi?
f> Bolalar lasvirlangan belgi qayerda o'rnatiladi?
7. «Piyodalar o'tish joyi» belgisi nimani bildiradi?
K. «Xavl'li burillsh» belgisini chizing. U nimadan ogohlantiradi?

# IMTIYOZ BELGILARI

Ko'chalar va yo'llarda transport vositalari harakati uzluksizlijj doimiy olib borayotgan sharoitlarda ular oqimini aniq tashkil etish kali ahamiyatga egadir.

Svetoforlar yonib turgan chorrahalarda haydovchilarning o'zla uni ilg'ab olishadi va harakat tezligini kamaytirishadi. Katta tezlikd kelayotgan haydovchilar va velosipedchilarni yo'l kesishmasig yaqinlashib qolganliklari to'g'risida qanday ogohlantiriladi hamd chorrahalardan, kesishmalardan yo'llarning ayrim qismlari va joylaridan tartib bilan o'tishni qanday ogohlantirish mumkin?

Buning uchun chorrahalar va yo'l kesishmalarining ayrim orali masofalarida ko'rsatkich belgilar o'rnatiladi.

Bosh va ikkinchi darajali ko'chalar hamda yo'llar mavjud. Yo'l belgila ularning farqlarini anglatib turadi. Bundan tashqari qoplamasiz (qattiq yo'lga taalluqli har qanday qoplamali yo'l bosh yo'l hisoblanadi.

## «BOSH YO'L» BELGISI

Bu belgi oldinda transport vositalari harakatlanayotgan bosh yo'l borligini bildiradi.



Yon ko'chadan ana shu yo'lga chiqib kelayotgan haydovchilar, shuningdek, velosipedchilar bosh yo'lda kelayotganlarni o'tkazib yuborishlari kerak. Bosh yo'l tugagan oxirgi joyda «Bosh yo'lning tugashi» belgisi qo'yiladi.

## «YO'L BERING» BELGISI

Bu belgi sakkizqirrali shaklda, qizil rangga bo'yalgan bo'ladi. U linimsi harakatdagi ko'chalar va yo'llar chorrahalari oldiga o'rnaliladi.

Avtomobillar haydovchilari va velosipedchilar bu bclgini ko'rgandai

in'Klashlari va kesishma vn'tmlishdagi Iransport vosilasini n'ikii/.ib yuborishlari kerak.

ko'rib chiqilgan keng larqalgan in и buyuruvchi belgidan tashqari llhiuhi darajali yo'l bilan kt'Mshuv», o'ngdan yoki chapdan 11 hiu hi darajali yo'l tutashuvi» hrlgllari ham bor.




## «TO'XTAMASDAN HARAKATLANISH TAQIQLANADI» BELGISI

I l.iydovchi bu belgini i " i f.ii'li, yo'l kesishmasi bo'ylab 11 < 11 .it- .illanayotgan transport oMhr.iga yo'lni bo'shatib berjshi Импк.




Nil vol va topshiriqlar:

I lluyuruvchi belgilar nimani bildiradi?

' Yaqinlashib kelayotgan transport vositasi bo'lmasa ham oldinda »I <>'xlamasdan harakatlanish taqiqlanadi» belgisi o'rnatilgan bo'lsa, vHosipedchi chorrahada to'xtashga majburmi?

# TAQIQLOVCHI BELGILAR

## «PIYODALARNING HARAKATLAINISHI TAQIQLANGAN» BELGISI



Bu belgi piyodalarning harakatlanishini taqiqlaydi.

Qoidaga ko'ra, bu belgilar yo'l-ta'mirlash ishlari ketayotgan, qurilish maydonlari atroflariga, qisqasi piyodalar uchun xavfli hisoblangan joylarga o'rnatiladi.

## «VELOSIPEDDA HARAKATLANISH TAQIQLANADI» BELGISI



Ko'chalar va yo'llarda, ana shu belgi o'rnatilgan joylarda velosipedda yurish taqiqlanadi.

Odatda katta transport harakati gavjum ko'chalar va yo'llarga «Velosipedda yurish taqiqlanadi» belgisi qo'yiladi.

## «HARAKAT TAQIQLANADI» BELGISI



Shunday ko'chalar va yo'llar bo'laklari ham borki, ularda har ikki yo'nalishda transport vositalarining harakatlanishi mumkin emas. Bu haqda avtomobil haydovchisi yoki velosipedchini «Harakat taqiqlanadi» belgisi ogohlantiradi. Belgi ko'cha va yo'l bo'lagining har ikki tomoniga o'rnatiladi. Uni ko'rgan haydovchi hududni aylanib o'tadi.

Belgi ostida strelka tasvirlangan qo'shimcha ko'rsatkich ham o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Strelka harakat yo'nalishi belgisini anglatadi.

Bu belgi harakati jamoat transportiga (tramvay, avlobus) tatbiq

vuliiiftvili. Jinn oat transport! haydovchilari ana sliu dahadan o'ta » hlh olkorlik bilan o'tib ketadilar.

## «KIRISH TAQIQLANADI» BELGISI



I u . hitlnrda oq kesishgan qhll dolrali belgini uchratish **aniiНи** Mashina haydovchilari va vcltf.ipc'di hilarning ana shu In l^i m i nalilgau ko'cha yoki yo'l I". I i|M| i klrishi mumkin emas.

OiliHda bunday belgilar bir It.it akaldagi ko'chalar boshiga qo'yiladi. Shu sababli «Kirish i<*•11*11т.nil bi-lgi-a o'rnalilgan ko'chaga qarama-qarshi tomondan yoki ниц. i. . . . .to ,It ii и ko'cha orqali kirish mumkin. Bu belgi amaliyoti ana ha кl1 i had.HI \.i п.ili\In o'tgan jamoat transportiga tatbiq etilmaydi.

Kin li iii.ii.iI.iiiaiIi>•,•<Ilarakatlanish taqiqlanadi» yoki «Velosipedda vhiK.Ii i n|ii|l,III.i.li" l>rljM\ini ko'rgan velosipedchi darhol velosipeddan HlUhili,. . . . . .|n Int.i M-t.iklaganicha trotuarga o'tib olishi, «Yo'l harakati •irtM'il 'ii .1,1 ku i'..ililgaindck, harakatlanishi lozim.

## < МЛ1Ч;Л BURILISH TAQIQLANADI», •inм<;(;л burilish taqiqlanadi» BELGILARI





И i ни I tori a ha la rda chap yoki м ug iiiiiHiiiga qizil chiziq tortilgan, 11.i\ 1111'.111 qora slrelka belgisini П. in HI Ii mumkin. Bunday h. Igllai avlomobil haydovchilari mi vrlosipedchilarga strelka .|ai illlgan lomonga yo chapga \ ok I o'ng lomonga burilishmumkin . iiiasllgini anglatadi. Daf'atan, i hapga burilish taqiqlanadi» in Igi.si haydovchilarga orqaga qaytilishui lac|iqlamaydi.

Qoidaga ko'ra, bu belgilar ondosh qalnovlarda harakat faqat bir tomonga, ya'ui koMia lilt liiiiionluma harakaidau iborat ekanligidan dalolal beradi.

## «TO'XTASH TAQIQLANADI» Bill CilSI





Shundayko'chalarvayo'llarning alohida bo'laklari borki, ularda transport vositalarining to'xtashi taqiqlanadi. Bunday belgini ko'proq transport vositalari harakatining ushlanib qolishiga sabab bo'luvchi bekatli tor ko'chalar va yo'llarda uchratish mumkin.

## «TRAKTORLARNING HARAKATI TAQIQLANADI» BELGISI



Bu belgi traktorlar, kombaynlar, shuningdek, boshqaqishloqxo'jalik mashinalari va mexanizmlarining harakatlanishini taqiqlaydi.

## «OT-ARAVA HARAKATLANISHI TAQIQLANADI» BELGISI



Bu belgi ot-arava, chana, shuningdek, otliqlar va mol podasini haydab o'tish harakatini taqiqlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Taqiqlovchi belgilar nimalardan dalolat beradi?
2. Velosipedchi «Kirish taqiqlanadi» va «Velosipedda harakatlanis taqiqlanadi» belgisini ko'rgach, qanday yo'l tutishi kerak?
3. «Yo'l yopiq» belgisi qayerda o'rnatiladi?
4. «Harakat taqiqlanadi» belgisi o'rnatilgan ko'chada velosipedcl harakatlanishi mumkinmi? ^

# BUYURUVCHIBELGILAR

Ituyuruvchi belgilar ko'chalar va yo'llarning bayonnoma kirililgan Im laklarl oldiga o'rnatiladi.

## «MAJBURIY HARAKAT YO'NALISHI» BELGISI





Пи brlgilaravtomobilhaydovchi-lin| mi \. Insipedchilarga majburiy 11 и ikal yo'nalishini ko'rsatib tura-•li I l и iiclka ko'rsatgan tomon-|!,|циы liaiakat qilishlari kerak.

Пи belgilar jamoat" trans-put i voMialari faoliyatiga ta'sir >lllillinavdi.

## «VELOSIPED YO'LKASI» BELGISI

I





Ни belgi faqat velosi-|n il. liilaiiiing harakatlanishiga iiiv.al eladi. U velosipedchilar mi'II ам nchun maxsus ajratilgan |oylarga osib qo'yiladi. ItoNhqa transport vositalari (avlomobillar, mototsikllar, ot-iiravali transportlar) turlariga <Ml bu belgida o'tib ketish ruxsat rlllmaydi.

Agar piyodalar uchun troluar yoki yo'lka bo'lmasa, piyodalar vHosiped yo'lkasi bo'ylab Itarakallana oladilar. Ammo, shu

bilan birga piyodalar o'ta ehtiyotkor bo'lishlari, vcloNlprdt hilar esj diqqat bilan yurishlari lozim.

Agar ro'paradan velosipedchilar oqimi kelayotgan bo'lsa, alohidj ehtiyotkor bo'lishlari zarur.

## «PIYODALAR YO'LKASI» BELGISI

Ba'zan yo'llarda faqat piyodalar uchun belgilangan maxsus yo'lka bo'ladi. Ana shu yo'lkada ko'chada yurish umumiy qoidasiga tayangan holda harakatlanish zarur. Piyodalar yo'lkasida o'ynash, chana uchish mumkin emas.

Bu yo'lkani anglatish uchun «Piyodalar yo'lkasi» belgisi o'rnatiladi. Bu yo'lka bo'ylab velosipedda yurish taqiqlanadi.

# AXBOROT-ISHORA BELGILARI

## «AHOLI YASHAYDIGAN JOYNING BOSHLANISHI» BELGISI

Belgi shaharga, aholi yashash joyiga yoki qishloqqa yaqinlashayotganligidan darak beradi. Bunda avtomobil haydovchilari va velosipedchilar harakat tezligini kamaytirib, e'tiborni oshirishlari kerak.

## «BIR TOMONLAMA HARAKATLANISH YO'LI» BELGISI

Belgi avtomobil haydovchilari va velosipedchilarga yo'l bo'lagida bir tomonlama harakatlanish lozimligidan darak beradi. Qayrilish va orqa yo'nalishda yurish, ro'paradan kelayotganga qarshi harakatlanish mumkin emas. Aks holda bu yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishiga olib keladi.

## «PIYODALAR O'TISH JOYI» BELGISI

Uelgi piyodalarning o'tish joyini bildiradi. U piyodalarga ko'chalar va yo'llardagi qatnov qisniida o'tish joyini anglatadi.



Avtomobil haydovchilari va velosipedchilar piyodalar o'tish joyiga yaqinlashganlarida tezlikni kamaytirib alohida ehtiyotkorlik ko'rsatishlari lozim.



## «TO'XTASH JOYI» BELGISI

Itll belgi transport vositalarining lo'slash joyini ko'rsatadi. I'lvodalar ana shu maydonchaga Mrlshlari mumkin emas. Chunki kulllmaganda unga mashina kirib I rhb qolishi mumkin.



# SERVIS BELGILARI

## «B1RINCHI T1BBIY YORDAM KO'RSAIISH JOYI» BELGISI




Bu belgi haydovchilar va yo'lovchilarni yo'ldan uncha uzoq bo'lmagan joyda tezkor yordam ko'rsatish maskani borligidan xabardor qiladi.

## «OSHXONA» YA «MEHMONXONA» YOKI «KEMPING» BELGILARI

Bu belgilar haydovchilar va yo'lovchilarni yo'lda oshxona mehmonxona yoki kemping borligidan xabardor qiladi.

## QO'SHIMCHA AXBOROT BELGILARI




Turlicha belgilarni hisobga olgan holda ko'rsatkichlar haydovchilarga yo'llarda mo'ljal olishga yordam beradi.

Bunga masalan, «Harakatlanish

liiiiliKli» (i), «магака! yo'nnnsm» (2), shuningdek, «Harakat vaqli», •Transport vositasining turi», •«Bosh yo'l-yo'nalish» va h.k. ko'rsatkichlar kiradi.




w -Av,ubu<v^s=—w ^ M i i

r

' . ivol va topshiriqlar:

f

1. Axborot-ishora belgilari nima maqsadda xizmnl qiladi'

2. «Piyodalar yo'lkasi» belgisi nimani bildiiadi' I[1] t|ii\»>»dt o'rnatiladi?

.i. «Piyodalar o'tish joyi» belgisi qayerda o'rnatiladi"

4. Qo'shimcha axborot belgilarining vazifasi qandas "

5. Maktabingiz yo'lida qanday yo'l belgilari nchi .r.hlni c iph ih l" • lily I Har rasmini chizing. e

<). O'zingiz bilgan va ko'rgan chorraha, ko'i halaida N" I Itat^ail •|oidalari»ga qanday amal qilishlari haqida gapirib In iinj>

7. Quyidagi rasmga qarab piyodalarning xalosinl lopinj'

# OSMA DVIGATELLI VELOSTPFJ) VA MOPEDLARDA HARAKAT QII JSH I QOIDALARI j



Transport vositalaridan biri bo'lgan osma dvigatelli velosiped-ning asosiy texnik tuzilishi shun-day:

— harakatlantiruvchi dvigatel - motor qismi, harakat uzatmasi, boshqaruv ruli, g'ildiraklar. Mopedlarning ham tuzilishi shunday. Osma dvigatelli velosipedlarniyoshi 14ga to'lmagan bolalarning boshqarishi mumkin emas. Yoshi 16 ga to'lgan o'smir bolalarga esa moped haydashga ruxsat etiladi. Osma dvigatelli velosiped va moped haydovchilarga ham transport vositasining boshqa turlarini boshqaruvchi haydovchilarga qo'yilgan talablar joriy etilgan Velosipedchilar va moped haydovchilar ham «Yo'l harakati qoidalari»d< belgilangan tartib va ko'rsatmalarga amal qilishga majburdirlar. Ulaf awalo, yo'l belgilariga rioya etishlari, tartibga soluvchi hamda svetofoi ishoralariga ko'ra harakatlanishlari lozim.

Velosipedlar, mopedlarni haydab ketayotganda yo'lning chetki o'ng bo'lagidan harakatlanish lozim. Velosiped va moped yaxshilab sozlangan va tormoz qismi yaxshi ishlaydigan bo'lishi kerak. Qorong'i vaqtda yaxshi ko'rinishi va yo'lni yoritib borishi uchun velosipedning old tomoniga oq rangli chiroqcha yoki qizil rangli nur qaytargich, yon tomonlariga esa zarg'aldoq yoki qizil rangli nur qaytargich o'rnatilgan bo'lishi shari Agar shunday vositalari bo'lmasa, velosipedni tungi vaqtlarda boshqarish qiyin kechadi, uni boshqa transport vositasi haydovchisi ko'rmay qolib urib yuborishi mumkin.

Velosiped va mopedni bir qo'l bilan zinhor boshqarmaslik kerak. Bundan tashqari har ikkala transport vositasida ham odam tashish va eniga 0,5 metrdan ortiq hajmdagi boshqarishga xalal beradigan yuklarni tashish taqiqlanadi.

Chorrahadan tashqaridagi harakat tartibga solinmaydigan joylarda

**vdotiipeil yo'lka.sida horayotgan** velosiped va moped haydovchilari hii yo'lka bilan kesishgan yo'llarda luiiakallanayotgan transport voNitalariga yo'l berishlari kerak.



Velosipedlar uchun maxsus yo'lka bo'lgani holda yo'lning i|iitnov qismida harakatlanish, ihimvaylar yo'llarida, tegishli vo'iialishda bo'lagi bittadan ko'p bo'lgan yo'llarda chapga !>H 11ish yoki qayrilib olishga mix.sat etilmaydi. Velosipedlar va lliopcdlarni shatakka olish, ulardan haiakka olishda foydalanish, Iиyodnlar yuradigan yo'llarda katta |. /likda yurish mutlaqo mumkin •urn,sligini yodda tutish lozim.

()sma dvigatelli velosiped va lliopcdlar odam yoki yuk tasljish vosilasi emas. Ulardan faqat •Yo'l harakati qoidalari»da belgilangan me'yoi vn ни #oulf|fi| (MHttf" foydalanish zarur. Chorrahalardan, piyodalai lit linn . . . ЯЫ1И1* o Ikalardan o'tayotganda, albatta, yo'l belgil.m mi n Infill мРИМвмИ Moya etish lozim. Chorrahalardan katta tezlikda .1 qi/il • 1ппм|»1# it'll*» hi.in etiladi.

Ko'cha va yo'llarning chap tomonidan yurish, ц.имму чШИНИ MWd •ll'.li taqiqlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Osma dvigatelli velosiped va mopedlarning IUZIIINIII I. ..|..I,I MIHIMIHI HI bilasiz?
2. Velosipedni va mopedni necha yoshli bola liayd i .h lnnjMii>r . «'ga?
Л. Osma dvigatelli velosiped va moped haydovi hil.nl in hnu »|И'"Ь», qoidalar bor?
**4.** Qayerda va qanday tartibda yurish mumkin **hamda** и1иы1н| мшиНн rmasligi xususida so'zlab bering.
5. Chorrahada o'tish qoidasi qanday? Yo'lkadan t In'

# SMIKASTLANCAINLARGA RlRfNCH TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

## 3.1. UMUMIY QOIDALAR

### 3.1.1. YO'L-TRANSPORT SHIKASTLANISHLARI ||

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, yo'l-transport hodisalarigji uchraganlarga birinchi daqiqalarda tibbiy yordam ko'rsatish ko'i jihatdan jabrlanganlar hayotini saqlab qolinishga sabab bo'ladi, Yapon mutaxassislarining fikricha, shikastlangan kishi klinik o'liii holatida 3 daqiqagacha bo'lsa, uning hayotini saqlab qolish ehtimol 75%ni tashkil qiladi. Bu vaqt 5 daqiqaga cho'zilsa, hayotini saqlal qolish ehtimoli 25% gacha kamayadi. Agar 10 daqiqadan ko'i vaqt o'tsa, odamning hayotini saqlab qolib bo'lmaydi^

N.V. Sklifosovkiy nomidagi tez yordam ilmiy-tadqiqol institutining ma'lumotlariga ko'ra, yo'l-transport hodisalarida o'lganlarning taxminan 17%ining olamdan ko'z yumish sababl qon oqish, nafas^bo'g'ilishi va boshqa lozim bo'lgan tibbiy tej yordam ko'rsatilmagan holatlar tufayli ro'y bergan. Yo'l-transpon hodisalarida og'ir shikastlanganlarning 60%i fojia joyida, 8%j davolash muassasasi yo'lida olamdan o'tishi aniqlangan.

### 3.1.2. TIBBIY YORDAM KO'RSATISH TARTIBI V TASHKIL QILISH QOIDALARI

Yo'l-transport hodisasida shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish 3 bosqichda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi:

Birinchisi — hodisa joyida. Bu o'z-o'ziga yordam ko'rsatish va hodisa joyida bo'lgan odamlarning yordami hamda chaqirilgan tibbiyot xodimlari ko'rsatgan yordamdan iborat.

Ikkinchisi — shikastlanganlarni davolash muassasasiga olil borishda yo'lda ko'rsatiladigan yordam.

Uchinchi — davolash muassasasidagi yordam.

Davolash-profilaktika korxonalarinr avtomobil yo'llarining qisnilariga o'rnalilgan va bu yo'llarda tibbiy yordam olishni blldiradigan 6.1 va 0.2 yo'l belgilari bilan belgilab qo'yish ko'zda llililgan. Tibbiyot xodimlari boshqaradigan avtomobillarga o'rnatish iK luin taniqlik belgi mavjud. Bunday belgilar yo'l-transport hodisasida shikastlanganlarga malakali yordam ko'rsata oladigan linkimlarning avtomobillariga o'zlari xohish bildirgan taqdirda ii'ruatiladi. Bunday hakimlar ro'yxatini davolash muassasasining hush hakimi tuzadi va joylardagi sog'liqni saqlash tashkilotlari uidiqlaydi. Hakimlar boshqaradigan avtomobillar taniqlik belgisi hiLiii belgilanganda, ularga guvohnoma yoki shikastlanganlar linvoti xavf ostida qolganda yordam ko'rsatish uchun transport vnsilalaridan tekin foydalanish huquqini beradigan talon beriladi.

### 3.1.3. TIBBIY YORDAM KO'RSATISH TALABI

Yo'llarda harakatlanish qoidalarining 5.1- bandiga asosan, yo'l-n.HI,sport hodisasi sodir bo'lganda haydovchi: darhol buyumlarni i|o'/.g'atmasligi, shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish in luin zarur choralarni ko'rishi, «tez tibbiy yordam» xizmatini ibaqirjsh, agar buning imkoni bo'lmasa, shikastlanganlarni o'z ii.insportida yoki boshqa yo'lovchi transportida yaqin oradagi il.ivolash muassasasiga olib borishi, u yerda o'z ismini, transport Misilasining davlat raqamini aytishi va voqea sodir bo'lgan joyga i|,iylib kelishi shart.

Bundan tashqari tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarga:

vo'l-tfansport hodisasi tufayli shikastlangan transport vositalarining shatakka olib borishi (faqat yuk avtomobili hnydovchilari);

tibbiy yordam ko'rsatish uchun shu yo'nalishda kelayotgan llbbiyot xodimlariga, shuningdek, harakat yo'nalishidan qat'i iiazar, hayoti xavf ostida qolgan bemorni yaqin atrofdagi davolash muassasasiga olib borishda ko'maklashishi lozim;

xizmat vazifasi bilan bog'liq hollarda militsiya xodimlariga haydovchi transport xizmati ko'rsatishi shart (qoidaning 3.6 hundi).

Bu qoidalarga rioya qilmagan haydovchilar jinoiy javobgai likka lorliladilar.

YoM-transport hodisasida jabrlanganlarning shik.isilanish darajasiga qarab jinoyat ko'ribchiqiladi. YTH oqibatida jabrlangaif shaxs o'lganda haydovchiga juda katta javobgarlik yuklatiladij YTHda o'lganligini aniqlash uchun hodisadan keyin odam o'lgangacha o'tgan muddat bilan aniqlanadi. Turli mamlakatlarda bu muddat turlicha belgilangan. Masalan, Polsha va Vengriyada bu muddat 2 kun, Avstriyada 3 kun, Fransiyada 6 kun, Italiya, Rossiya va O'zbekistonda 7 kun, deb belgilangan. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining belgilashicha, avariyadan keyingi 30 kun orasida o'Iganlar, YTHsi oqibatida o'Iganlar hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik kodeksiga asosan og'ir tan jarohati, uncha og'ir bo'lmagan va yengil jarohatlarga bo'linadi. YTHda haydovchining javobgarligi ana shu jarohatlanish darajasi bilan belgilanadi.

Og'ir tan jarohatlariga, hayot uchun xavfli bo'lgan eshitish, ko'rish, gapirish, qo'li, oyog'ini yo'qotgan, sog'ligi izdan chiqqan, mehnat qobiliyatini 35%ga yo'qotganlar hisoblanadi.

Uncha og'ir bo'lmagan tan jarohatlariga hayot uchun uncha xavfli bo'lmagan tana a'zolari va funksiyalari yo'qolmagan, sog'lig'l 4 haftadan ko'proq muddatda izdan chiqqan, mehnat qobiliyatini 15-35% gacha yo'qotganlar hisoblanadi.

Yengil tan jarohatlariga sog'lig'ini yo'qotib, 28 kungacha davolangan va mehnat qobiliyatini 15%gacha yo'qotganlaij kiradi.

## 3.1.4. YPX MASKANLARI VA AVTOMOBILLARNI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH VOSITALARI BILAN JIHOZLASH

Yo'l-transport hodisalari tufayli shikastlanganlarga kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish uchun statsionar YPX maskanlari quyidagilar bilan jihozlanadi:

Qon to'xtatuvchi rezina jgut ............................ 2 dona
Kiyimlarni qirqish uchun qaychi ......................... 1 dona
Til uchun to'g'ri, yoyiq metall shpatel ................. 1 dona

Metall shina:

Qo'l uchun .............................................. I dona

Oyoq uchun.........................................................I dona
Sanitariya zainbili.............................................I dona
Yig'iladigan tibbiyot shchiti...............................1 dona
liir tabaqali tibbiyot shkafi...............................1 dona
Steril doka bint.................................................1 dona
O'lchamlari 7x5 sm.........................................1 dona
O'lchamlari 10x5 sm.......................................1 dona
Steril doka salfetkalar 16x14 sm.........................1 dona
IMastir 6x10.....................................................1 dona
. Yopishqoq plastir 6x4,5 sm ..............................1 dona
5% li yod eritmasi________________________6 ampula
10% H ammiak eritmasi......................................6 ampula
Validol...............................................................1 quti
Nitroglitserin tabletkasi.......................................1 quti

Elastik naysimon sterillangan bint:

№1 (massasi 1,5 gr)...........................................1 o'ram
№2 (massasi 3,5 gr)...........................................1 o'ram
№3 (massasi 4 gr)..............................................1 o'ram

Yo'lda birinchi tibbiy xizmat ko'rsatish uchun transport vositalarida doriquti (aptechka) bo'lishi shart. Unda quyidagilar bo'lishi ko'zda tutilgan:

Yurak sohasida og'riq sezilganda til ostiga qo'yish uchun labletkali validol.

Og'iz bo'shlig'i, tomoqni chayish uchun va **jarohatni yuvish** uchun kaliy permanganat (suv bilan eritmasi qizg'ish rangda bo'ladi).

llushdan ketganda, is gazi tutganda iskatish, terini qiliqlash uchun 10%li ammiakning suvdagi eritmasi.

Jarohatlar atrofida ishlov berish uchun spirtli 5% li vod eritmasi.

Arteriyadan qon oqishini vaqtincha to'xtatish uchun jgul.

Kuyishdan keyin, kesilgan, tirnalgan joylarni davolash uchun leykoplastir.

# 3.2. ODAM ANATOMIYAS1 VA FIZIOLOOIYASI

## 3.2.1. ODAM GAVDASINING TUZILISIII

Odam organizmi alohida qismlar, to'qimalar, a'zo va to'qima elementlaridan tashkil topgan. Ana shu qismlarning bir-biriga uzviy bogianishi natijasida bir butunga aylangan tuzilma bo'lib, u beto'xtov o'zgarib turadi. Organizm o'zi yashaydigan joyga moslashgan va shu sharoitsiz yashay olmaydi.

Organizmning barcha a'zolari bir-biri bilan o'zaro bog'liq, ya'm tomirlarda oqayotgan qon, limfa suyuqliklari yordamida gumoral yo'l bilan bog'lanadi, markaziy asab (nerv) sistemasi organizmm idora etib turadi, bularning hammasi organizmning bir butunligim ta'minlaydi.

Demak, odam organizmi to'qimalardan, a'zolardan, sistemalardaii tarkib topgan, ular o'zaro bog'lanib, bir butun organizmni hosil qiladi. Organizmning bir butunligi shunda ham namoyon bo'ladiki, odam kasallanganda yoki shikastlanganda, faqat og'rigan joyi bezovta qilmasdan, balki butun organizmni umumiy reaksiyasida i namoyon bo'ladi. Bu asab markazlari va asab hujayralarining funksiyasini o'zgarishi natijasida organizmning hayot faoliyali uchun kerakli vitaminlar, garmonlar, tuzlar va boshqa moddalarning qon tarkibida kerakli miqdorda qo'yilishi natijada organizmning energetik va himoya qobiliyati oshadi. Bular hosil bo'lgan jarohatlarning sog'ayishiga ko'maklashadi.

Kasallikning ijobiy yoki salbiy jarayonida odamning o'z holatigii nisbatan munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Kasallikni pisand qilmaslik, aktiv pozitsiyada bo'lish, hayotdan umidvorlik tez sog'ayishga imkon yaratadi.

Yo'l-transport hodisasida jarohatlanganlarning jarohatiga vn uning holatini baholash uchun odam anatomiyasi va fiziologiyasi asoslarini bilish, oqilona birinchi tibbiy yordam berish, davolash j muassasalariga bemorlarni tashishni to'g'ri tashkil etishni i ta'minlaydi. Bu bemorlarning sog'lig'ini tiklash va hayotini saqlab qolish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Nafas a'zolari sistemasi organizmni kislorod bilan ta'minlab, karbonat angidrid gazini organizmdan chiqarish kabi murakkab!

va/.ifani ado cladi Nalas a'zolariga havo yo'llari (og'iz bo'shlig'i, lomoq, traxoyn, hronx) va o'pka kiradi. Nafas olganda o'pka kengayadi, undagi bosim kainayadi va atmosferadan havo yo'llari orqali alveolalarga (eng kichiк pufakchalar) kiradi. Alveolalar yupqa alveolaga chiqariladi. O'rta yoshli odam linch holatda I tlaqiqada 16-20 marta nafas oladi. Jismoniy ish bajarganda nafas ulish tezlashadi. Shikastlanish bo'lganda nafas yo'llari yopilishi mumkin, bu nafas olishni to'xtatishga olib keladi. O'z vaqtida ko'rsatilgan yordam hayotni saqlab qolishi mumkin.

Ovqat hazm qilish a'zolari. Hazm qilish ovqatni mexanik ishlov ' i ish, maydalash, namlash, ishqalash vaximiyaviv ishlovberishdan iborat. Ovqatni hazm qilish og'iz bo'shlig'ida boshlanadi, keyin ovqnl oshqozonga, o'n ikki barmoqli ichak, ingichka va yo'g'on м haklarga tushadi.

I lazm qilish a'zolarida oqsillar, yog'lar, uglevodlarning murakkab molekulalari oddiy molekulalarga ajraladi. Bu jarayonda og'iz bo'shlig'i ovqatni hazm qilish bezlari, oshqozon va ichak bezlari Ishlirok etadi. Oshqozonda 6-8 soat davomida ovqat suyuq yoki y.irim suyuq holatga keladi. Shu holda ular oz-ozdan ichakka <o'riladi. Yupqa ichakga ovqatning so'rilishi boshlanadi, ya'ni h.ii xil-moddalarning limfa va qinga o'tishi keyinchalik ularning lo'qima va hujayralariga o'tadi.

Yurak-qon tomir a'zolari. Yurak va qon tomirlari bu sistemnni l.ishkil etadi. Qon aylanishining vazifasi badan a'zolariga yi-larli miqdorda qon yetkazib berib, ularning kislorod va ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Tomirlarda i|itmiing harakatini uzluksiz ishlab turgan yurak ta'minlaydi. lining ishini havzadan suv tortib tashlaydigan nasosga o'xshatish imunkin.

Harakat a'zolari sistemasi. Odam harakat qilish qobiliyatiga ega. Harakat apparati faol harakatchan qism muskullar va passiv qism suyaklarga ajraladi. Lekin muskullar suyaklar va ularni hirlashtirib turgan boylamlar vazifasi bir-biriga bog'liq bo'lib, bitta embrional qavat lizodermadan riVojlanadi. Qisqasi, harakat ipparati uchta: suyak, suyaklarni birlashtiruvchi boylamlar va muskullar sisternasidnn iborat.

Organizmni harakalga keltiradigan a'zolar muskullar, skclet va

Miami bit ikliruvc hi noyiamwrcian morni.

Skelet organizmdagi yumshoq to'qima va a'zohiruing birikij) turishi natijasida vujudga keladi. Skelel bir qaneha alohidai joylashgan suyaklardan tarkib topib, o'zaro biriktiruvchi lo'qimalarj boylamalar va tog'aylar vositasida birlashadi va passiv harakal apparatini hosil qiladi. Skelet boimasa qomat shakllanmaydi. Skelet organizmda asosan 3 vazifani bajaradi. Bular: tayanch, harakat va himoya vazifalaridir.

1. Tayanch vazifasi — yumshoq to'qima va a'zolarning skeletninj-, ayrim qismlariga birikib turishi natijasida vujudga keladi.

2. Harakat vazifasi — skeletni tashkil qilib turgan suyaklarning har xil richag hosil qilib, bo'g'im orqali birlashishi va nerv sistemasi' yordamida muskullar qisqarishi bilan yuzaga keladi.

3. Himoya vazifasi — skeletning alohida qismlaridan vujudga kelgan bo'shliqlar orqali bajariladi. Masalan, umurtqalar yig'ilib orqa miyaning joylashib turishiga moslashgan kanal, bosh miya uchun kalla suyaklaridan hosil bo'lgan kallaning miya bo'shlig'i, yurak va o'pkalarning saqlanishiga moslashgan ko'krak chanoq bo'shliqlari shular jumlasidandir. Bulardan tashqari suyaklar organizmning biologik muhofazasini bajaradigan va to'qimalarga kislorod yetkazuvchi qon tanachalarini vujudga keltiradigan suyak iligi (miya)ni ham saqlab turadi.

Nerv sistemasi. Organizmdagi deyarli hamma a'zolar va to'qimalarga nerv tomirlari tarqalganligi va bu oxirgi tolalarning hammasi markaziy nerv sistemasi bilan bog'langanligi tufayli nerv sistemasi bilan shu a'zolarni, ya'ni organizmning hamma bo'laklarini yagona bir sistemaga birlashtiradi. Natijada, hamma a'zolarning ishi bir-biriga uzviy bog'langan bo'ladi.

Umuman nerv sistemasining joylanishi bajaradigan vazifasi va tuzilishiga qarab markaziy va periferik nerv sistemalariga ajratiladi. Markaziy nerv sistemasiga bosh miya va orqa miya, periferik nerv sistemasiga nerv ildizlari, nerv tugunlari, nerv chigallari, nervlar va ularning so'nggi tarmoqlari kiradi.

Bosh miya jarohatlanganda harakatlanish koordinatsiyasi va ruhiy telbalik vujudga keladi, ayrim og'ir sharoitlarda o'lim bilan tugaydi. Yirik nerv va orqa miya jarohatlanganda to'la yoki qisman falaj bo'lish mumkin. Bu asosan shikastlangan joydan pastda bo'ladi.

I




1. Bosh skeleti.
2. Umurtqa pog'onasi.
3. O'mrov.
4. Qovurg'alar.
5. To'shsuyagi.
(>. Yelka suyagi.
7. Bilak suyagi.
K. Tirsak suyagi.
9. Bilak suyagi.
K), Kaft suyaklari.
11 Barmoq suyagi.
12 Yombosh suyagi.
13 Son suyagi.
14 Tizza qopqog'i.
15 Katta boldir suyagi.
16 Kichik boldir suyagi.
17 Oyoq kafti usti suyaklari.
IS Oyoq kafti suyaklari.

fi.l.'L. tthlVIUKrNI IV! /\,ЛП I IN /м n\ IX V I I L Y N W I U I 1 <

## KO'TARISH VA TASHISH

Yo'lda avtomobil fojiasi sodir bo'lganda, mashina ichidagi shikastlangan kishiga birinchi tibbiy yordam berish uchun avvali uni mashinadan olib chiqish mumkinmi, yoki, jarohatlari jiddiy bo'lsa, uni jildirmaslik kerakmi degan savolni qo'yish kerak. Buning uchun shoshmasdan birinchi navbatda mashina ichida odam ko'p bo'lsa, ularning hammasini ko'rib, qay biri og'ir shikastlanganligini aniqlab va unga birinchi navbatda tezda yordam berish kerak. Te/ kelayotgan mashina to'siqqa urilganda ichidagilarning oyoq yoki. qo'llari mashina qismlari orasiga qisilib qolishi mumkin. Bunday hollarda iloji boricha bemorga ozor bermasdan olib chiqiladi. Buning uchun temir asboblar, montirovka, lom va boshqalardan o'rinli foydalanish mumkin.

Shikastlangan odamni mashinadan olib chiqishdan oldin uning qayeri jarohatlangan yoki shikastlanganligini aniqlash va shunga qarab yordam berishni tashkil qilish lozim. Agar qon-tomirlaridan - arteriyadan qon oqayotgan bo'lsa, uni darhol avval barmoq bilan bosib to'xtatish va so'ng rezina jgut qo'yish kerak. Qo'l yoki oyoq qiyshayib qolgan bo'lsa, albatta shu suyak singan bo'ladi. Gavdaning qiyshayib turishi yoki shikastlangan kishining qiyshayib yotishi uning behushligini yoki miyasi jarohatlanganligini bildiradi. Bunday hollarda bemor holatini o'zgartirmasdan mashinadan olib chiqishga to'g'ri keladi. Bemorni mashinadan olib chiqishdan avval birinchi tibbiy yordamni berish uchun tayyorgarlik ko'rishni unutmaslik kerak. Qish vaqtida bemorni o'rab-chirmab qo'yish kerak, chunki shikastlangan kishi sovuqqa chidamsiz bo'ladi. Bunday hollarda avval iloji bo'lsa, bemorni yaqin o'rtadagi uyga, yoki avtobusga olib kirib, o'sha yerda unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi. Bemorni mashinadan olib chiqishga ikki yoki uch kishi qatnashishi kerak, buning uchun haydovchi va'yo'lovchilar yordamlashishi zarur.

Yordam berayotganlar o'zaro bir-birlari bilan kelishib olgandan so'ng, bemorni ko'tarish vaqtida baravariga harakat qilib «oldik» yoki «bir, ikki, uch», deb bemorni dast ko'tarishi kerak.

qo'li qisilib qolgaiiml yoki yo'qmi aiiiqlash lozim. Agar shundav liolat bo'lsa, avval lining oyoq-qo'llari bo'shatib olinadi.

Shuni unulmaslik kciakki, bemorni mashinadan ko'tarib olgandan so'ng, uni siltainasdan, lortmasdan, bukmasdan, balki asta-si-kin tekis yerga qo'yib, so'ng yordani berish kerak. Agar ichki organlar, umurtqa pog'onasi shikastlangan bo'lsa, bemorni bukish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin, ayniqsa orqa miyaning shikastlanish ehtimoli bo'lsa, bunday holda ehtiyot choralarini 1 o'rib, bemorni mashinadan avaylab chiqargandan so'ng, albalta lekis yerga yotqizilmasa, shikastlangan umurtqa pog'onasi orqa iniya (harom mag'iz)ni ezib qo'yishi va natijada bemor falaj bo'lib qolishi mumkin.

Oyoq-qo'l suyaklari singan bemorlarga iloji boricha mashina Uhida singan sohasiga taxtakach qo'yiladi. Birinchi tibbiy voidam berilgandan so'ng, bemorni zudlik bilan yaqin oradagi Iihbiyot muassasasiga olib borish lozim. Bu qancha tez amalga oshirilsa, bemor hayotini saqlab qolish shuncha oson bo'ladi. Shikastlangan kishini ko'tarib olib borish ham muhim ahamiyatga i ga, shikastlangan bemorni ko'tarib olib boriladigan masofagacha voidam beradiganlarning soniga qarab har xil bo'ladi.

Shikastlanganlar turli usulda tashiladi: qo'lda, yelka va bii voki ikki kishi yordamida zambilda, zambilbog'ichi va qo'shimcha vositalardan foydalanib va nihoyat sanitariya zambillarida ko'tarish .hular jumlasiga kiradi. Shikastlanganni umumiy sharoitlarga qarab tashishning eng oqilona usulini tanlash lozim. Zambil ishlatib bo'lmaydigan hollarda qisqa masofaga qo'lda ko'tarib olib boriladi. Es-hushini yo'qotmagan va oyoq-qo'llari, qovurg'alari •.inmagan odamni ko'taruvchi kishi uning yon tomonida cho'kka turadi va bir qo'li bilan belidan ko'taradi. Jarohatlangan kishi I o'tarayotgan odamning bo'ynidan qo'lini o'tkazadi va unga vopishib oladi. So'ngra bemorni ko'tarayotgan kishi o'rnidan turadi va shikastlangan kishini ko'tarib oladi. Bu usulni qo'llaganda katta jismoniy kuch talab qilinadi, shuning uchun agar iloji bo'lsa, yoshlar ko'tarishi maqsadga muvofiq. Ba'zi hollarda bemorni opichlab ko'tarish lozim bo'ladi.

Agar bemor behush bo'lsa, uni faqat zambilda ko'tarish tavsiya

etiladi, buning uchun standart yoki qo'lda tayyorlangan zambil ishlatiladi. Standart zambilni ishlatish uchun tasmalari yechiladi, zambil yoziladi va uni tirgaklari yordamida mahkam qilib o'rnatiladi. Zambilni ikki kishi barobar ochadi. Ular dastasidan ushlab, yog'ochni ikki tomonga surib, matosini kuch bilan tortishadi. So'ngra tirkachlari chiqillab qulflanguncha tizza bilan bosiladi. Yig'ishtirish teskari tartibda bajariladi: matosi yig'iladi, so'ngra uch qavat qilib buklanadi va ikki joyidan tasma bilan mahkamlab qo'yiladi. Standart zambil bo'lmagan taqdirda kostyum, plash yoki paltodan ikki tayoqcha yordamida «zambil» tayyorlanadi va shikastlangan kishi ko'tariladi.

Shikastlangan kishining kiyimlarini yechish uning jarohatlangan yoki singan, chiqqan a'zosini ko'rish va unga birinchi tibbiy yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Chunki suyak ochiq sinsa unga albatta maxsus bog'lovchi qo'yish, suyak yopiq singan bo'lsa taxtakachlash kerak. Buning uchun shikastlangan kishini mashinada qulay joyga yotqizib, agar qo'li shikastlangan

IKKI KISHI BO'UB III MORN! TASHISH



BEMORNI TASHISH



bo'lsa, комvurn yoki ko'ylagini avval sog' tomonidan, so'ngra shikastlangan lomonidan yechiladi. Kiyintirish esa shikastlangan tomonidan boshlanatli. Og'irshikastlanishlar ro'y berganda umurtqa pog'onasi, son va kors suyagi, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i shikastlanganda bemorni beozor ko'tarish uchun uning kiyimlarini i|irqib yuborish yoki chokidan so'kish tavsiya etiladi, chunki bu bemorning ahvolini ancha yaxshilaydi. Agar yo'lda kuyish hodisasi ro'y berib kiyimlar etga yopishib qolsa, uni ehtiyotlik bilan qaychi vordamida kesib olinadi.

## ' 3.2.3. QON-TOMIRLAR SHIKASTLANGANDA BIRINCHI YORDAM BERISH

Qon-tomirlar shikastlanganda arterial, venoz va parensim.iloy oqishlar tafovut qilinadi. Agar qon jarohatdan lashq.n ig.i oqayotgan bo'lsa, buni tashqi qon oqish deb ataladi, agai <|on jarohatlangan tomirdan to'qimaga, ichki organlarga ko'k ink \«»l-1 <|orin bo'shlig'iga oqayotgan *bo'lsa, u holda buni ichki______qrili deyiladi.

Qon oqishni to'xtatishning ikkita uslubi bor: bid.и d m Inn vaqtincha bog'lab qo'yish, tomirni suyakka bosib tin isli \ .1 d- к m< In usul - butunlay to'xtatish, bunga qon oqishini jai rohlik \ •• ll I'd ш lo'xtatish kiradi. Transportdan shikastlanganda ba'/l hnlbmln liayot uchun xavfli bo'lgan arterial qon oqishi ku/alilmll, и minis 1 /.irarlanganda sodir bo'ladi. Arterial qon oqishida qon ImMin I'd m iu|ib turadi va uning rangi och qizil bo'ladi, agai qon . >.|i< in , »,n,i bilan to'xtatilmasa, bemor oz vaqt ichida ko'p qon yo'qnilb Ч" \[1] [1,1] iniiinkin. Bu hayot uchun o'ta xavflidir. Arterial «l•*•• •••l*L lo'xtatish tibbiy yordam ko'rsatishning eng biiimlil • IL hisoblanadi. Arterial qon oqishini to'xtatish baminaulutl qH **llilan** kcladigan eng oson va tezkor usuli, jarohallaiig.in ц»\ l-_____c fi ... arleriyani barmoq bilan bosib turishdir. Arleriyu n .l_______. vaqin joydan yoki lining ustidan o'tgan bo'lsa, inn 1 <. . . . . .1. Juda oson bo'ladi.

Son arterivasi iliov sohasida chanoqning qov **ми__** bilan bosiladi. Boldii voki oyoq panjasi solui .lililgl **jniiilitibbtM**

arterial qon oqqanila taqim arteriyasi laqiin chuqun haul sohasida bosiladi, buning uchun bosh barmoqlar bilan arlcrlva suvakga bosiladi.

Arteriyalarni barmoq bilan bosish ko'p kuch sarl'lashni talab etadi va bu tadbirni hatto jismonan kuchli va chiniqqan kishi ham 15-20 daqiqadan ortiq bajara olmaydi. Shunga ko'ra tomirni barmoq bilan bosib, imkon bor joyda zudlik bilan jgut yoki zakrutka solish va steril bog'lov qo'yish kerak.

## ODAMNING ARTERIAL QON-TOMIR TIZIMI



Jgut (zakrutka) solish oyoq-qo'lning yirik arterial tomirlari shikastlanganda qon oqishini vaqtincha to'xtatishning asosiy usulidir. Jgut son, boldir, yelka va bilakka solinadi. Tasmasimon rezina jgut bir uchida metaldan yasalgan ilgagi va ikkinchi uchida zanjirchasi bo'lgan uzunligi 1 metr keladigan elastik naychadan iborat.

Jgut qon oqayotgan joydan yuqoriga jarohat yaqiniga terini siqib qo'ymaslik uchun kiyim yoki yumshoq bint ustidan bog'lanadi. Jgut qonni to'xtata oladigan kuch bilan bog'lanadi. To'qimalar juda qattiq bosilganda oyoq-qo'lning nerv stvollari ko'proq shikastlanib qoladi. Jgut yetarlicha qattiq solinmasa, bu holda arterial qon oqishi kuchayadi, chunki bunda oyoq-qo'lning nerv stvollaridan venalarigina bosilgan bo'ladi.

Jgut solingan kuni, soati va daqiqasi yoziladi, qog'oz jgut

f osliga ko'rinllt iin .nli in <|ilib qislirib qo'yiladi. .Ignl bog'langan oyoq qo'lni, avulqsa qishda issiq qilib qo'yiladi, biroq uni grelka I bilan isitish munikiii emas. Jgut qo'yilgandan so'ng 2 soat o'lgan hollarda arleriyani barmoq bilan bosish, jgutni asta-sekin pulsni hisoblab turib 5 10 daqiqaga bo'shatish va uni avvalgi joyining yuqorirog'idan yana solish kerak. Jgutni shu tariqa vaqtincha yechish har soatda zararlangan kishiga jarrohlik yordam ko'rsatishga qadar takrorlanadi va har gal bu haqda yozib boriladi. Naysimon jgutning uchida zanjirchasi va ilgagi bo'lmasa uchlari lugun qilib bog'lanadi.

Jgut bo'lmaganda arteriyadan qon oqishini zakrutka qo'yish yoki qo'l-oyoqni maksimal bukish va uni shu vaziyatda bog'lash yo'li bilan to'xtatish mumkin. Qon oqishini zakrutka yordamida to'xtatish uchun tizimcha ro'moldan, gazmol parchalaridan foydalaniladi. Shimga taqiladigan kamarni ham zakrutka o'rnida ishlatsa bo'ladi, uni qo'shaloq ilgak ko'rinishida buklab qo'l-oyoqga kiygiziladi va lortib qo'yiladi.

Jarohatdan asta-sekin oqim bilan pulsatsiya qilmay oqib ehiqadigan to'q qizil rangli qon oqishiga venadan qon oqishi deyiladi. Venadan qon oqishini bosib turadigan steril bog'lov qo'yish va gavdaning shikastlangan qismini baland ko'tarib qo'yish bilan to'xtatiladi.

Kapilyardan qon oqayotganda jarohatning butun yuzasi qonab luradi va qon tomchilab chiqadi. Kapilyar qon oqishini to'xtatish uchun odatda steril, aksari bosib turadigan bog'lov qo'yish kifoya. IJog'lovga qon shimilib qolsa, qo'shimcha bint o'rash zarur.

## 3.2.4. NAFAS OLISH VA YURAK FAOLIYATI TO'SATDAN TO'XTAB QOLGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

Yo'lda shikastlanish sodir bo'lganda (elektr tokidan zararlanganda, suvga cho'kkanda) nafas va yurak faoliyali birdaniga to'xlab qolishi mumkin.

Nafas bir ine'yorda takrorlanadigan nafas olish va nafas chiqarishdan iboral li/iologik jarayon bo'lib, organizin bilan tashqi

muhil o'rlasidagi kislorod almashinuvini ta'minlaydi. Nal'as olganda o'pka alveolalari kengayadi va kislorod kirib nafas cinq;Uganda organizmdan korbonat angidrid chiqadi (bunda o'pka qisqaradi) bu bilan organizmda oksidlanish jarayoni bir me'yorda davoni etadi. Katta yoshdagi sogiom odam minutiga 16-18 marta nafas oladi. Nafas markaziy asab tizimi tomonidan boshqariladi.

Nafas olish to'xtab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish eng avvalo havo yuborishdan iborat. Bunda har xil apparatlardan foydalanish sun'iy nafas oldirishning eng ta'sirchan usuli hisoblanadi. Bunday apparatlar bo'lmaganda og'izdan og'izga puflash usulida sun'iy nafas oldiriladi. Sun'iy nafas oldirishni boshlashdan oldin zararlangan kishini chalqanchasiga yotqizib va o'pkaning havo o'tkazuvchi yo'llarida havo bemalol o'ta olishiga ishonch hosil qilish, buning uchun bemor boshini imkoni boricha orqaga qayrilib turishini ta'minlash kerak. Jag'ni oldinga surish va iyakni bosib og'izni ochish, so'ngra og'iz bo'shlig'ini so'lak yoki qusuq massalaridan tozalash va havo o'tkazuvchi naycha bo'lganda uni xalqumiga kiritib sun'iy nafas oldirishga kirishish zarur.

Havo o'tkazuvchi naycha bo'lmaganda shikastlangan kishining ochilgan og'ziga salfetka yoki ro'molcha bir qavat qilib qo'yiladi. Uning burnini qisib yordam berayotgan kishi chuqur nafas oladi-da lablarini shikastlangan kishining lablariga qo'yadi va kuch bilan havo puflaydi. Puflagan havo ta'sirida shikastlangan kishining o'pkasi kengayadi. Unda o'pka pufakchalaridagi asab tolalari ta'sirlanadi va bosh miyadagi nafas markazi qo'zg'aladi. Har gal o'pkani iloji boricha to'laroq kengaytira oladigan havo ulushi puflanadi, bu esa ko'krak qafasining harakati bo'yicha aniqlanadi. Havo kam puflanganda sun'iy nafas oldirish samara bermaydi. Havo daqiqasiga 16-18 marta tabiiy nafas olish tiklanguncha yoki oiimning muqarrar alomatlari paydo bo'lguncha bir maromda puflanadi. Yurak ishining to'xtaganini nafas, puis, yurak urishining to'xtaganidan, ko'z qorachiqlarining kengayganidan bilish mumkin.

Ko'pincha yo'llarda falokat (yo'l-transport hodisasi) sodir bo'lganda miya kosasi, yuz va pastki jag'lar barobar shikastlanadi, unday hollarda sun'iy nafas oldirishda boshqa usullar qo'llaniladi, shunga ko'ra sun'iy nafas oldirishda silvestr usuli ham qo'llaniladi.

Silvesti usullja siui'iv nafas oldirishda void.mi ko'rsaluvchi shikastlangan ki,shining hosh tomonidan cho'kka tushadi, lining ikkala bilagidan ushlaydi va qo'llarni yuqoriga, keyin orqaga, o'zining orqasiga ko'taradi va ikki tomonga yozadi. Nafas shu tariqa olinadi. Keyin qo'llar aksincha harakat . qildiriladi, zararlangan kishining bilaklari ko'krak qafasining pastiga qo'yiladi va shu joy bosiladi. Nafas chiqariladi.

Yurak faoliyati to'satdan lo'xtab qolganda zudlik bilan yurakni tashqi tomondan massaj qilishga kirishUadi. Shikastlangan kishi chalqancha votqiziladi, chap tomoniga o'tib turiladi va qo'l kaftlari ko'kragining uchdan bir pastki sohasiga ustma-ust qo'yiladi. Ko'krak daqiqasiga 50-60 marta marom bilan qattiq bosiladi, har gal bosishdan so'ng ko'krak qafasining kengayishiga imkon berish uchun qo'llar olinadi. Ko'krak qafasining oldingi devori kam deganda 3-4 sm. siljishi kerak. Ko'krak qafasini

BEMOR Yt IRACJINI TASHQI MASSA.I QILISH VA SI IN'lV NAFAS OLDIR1SH





qattiq bosish vaqtida to'sh bilan umurtqa pog'onasi orasidagi yurak qisiladi va undagi qon tomirlarga o'tadi. Bosish to'xtatilganda yurak bo'shliqlari kengayadi va ularga qon tushadi.

' Agar nafas lo'xtashi bilan birga yurak faoliyati ham to'xtasa, bu holda bir vaqlning o'/.ida ham sun'iy nafas oldiriladi, ham yurak massaj qilinadi. Honda ikkila, agar iloji bo'lsa, uchta sanitariya

drujinachisi yurakni tashqi tomonidan massaj qilsn, ikkim hi,si sun'iy nafas oldiriladi. Bu tadbirlar galma-gal bajariladi: nafas chiqarish vaqtida ko'krak qafasini 4-5 marta bosish, so'ngra o'pkaga havo yuborish kerak.

Yoshi ulg'aygan kishilarni sun'iy nafas oldirishga va yuragim tashqi tomonidan massaj qilishda bu yoshda suyaklarning bir muncha mo'rt bo'lib qolishini nazarda tutib birinchi tibbiy yordam berayotgan kishi harakatlarni birmuncha avaylab bajarishi kerak. Yosh bolalarda esa yurakni tashqi tomonidan massaj qilish, bolani to'sh sohasiga qo'l barmoqlari bilan ko'pincha ikki barmoq (ikkinchi va uchinchi barmoq) bilan bajariladi. Bemor hushiga kelgandan so'ng yoki yurak urishi faoliyati tiklangandan va nafas olishi bir me'yorda bo'lgandan so'ng uni yaqin oradagi tibbiyoi muassasasiga zudlik bilan olib borish lozim.

## 3.2.5. QUYOSH VA 1SSIQLIKDAN I JAROHATLANISH

Yozning ochiq kunlarida uzoq muddat bosh kiyimsiz bo'lganda quyoshdan jarohatlanish mumkin. Bunda bosh aylanishi, quloqlarning shang'illashi, ko'ngil aynishi, lohaslik seziladi, badan harorati 38-39 daraja ko'tariladi, terlash, yuz terisining qizarishi, nafas olish va tomir urishi tezlashadi. Og'ir hollarda alahsirash, hatto hayotdan ko'z yumish mumkin.

Havo harorati juda yuqori bo'lgan muhitda uzoq muddal bo'lganda issiqlikdan jarohatlanish mumkin. Bunda issiqlik hosil bo'lishi issiqlik chiqarish orasidagi muvozanatning buzilishi sabab bo'ladi. Issiqlik chiqarishning kamayishiga havoning yuqori darajada namligi, kiyimlarning havo o'tkazmasligi, yopiq joylarda havo almashinuvining yo'qligi sabab bo'ladi. Bulardan tashqari issiqlikdan jarohatlanishda nafas olish qiyinlashadi, esnash, ish yoqmaslik, uyqusirash, noaniq harakatlanishlar paydo bo'ladi, jabrlangan kishi hushidan ketadi, hatto o'lib qolishi mumkin.

Quyosh va issiqlikdan jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishda, iloji boricha tezroq badan haroratini tushirish lozim. Jabrlangan kishini soyaga yoki salqin binoga olib kirib, belgacha

yechinliriladi. oyoq klyinilari chiqariladi. Boshi ostiga yostiq qo'yiladi, nashalii spirti (10% li ammiakni suvdagi eritmasi) iskaliladi, yaxna ichimlik ichiriladi, yurak sohasi va peshanasiga lio'l latta qo'yiladi. Iinkoni boricha tez tibbiy yordam chaqirish yoki o'z transportida davolash muassasasiga olib borish kerak.

Quyosh va issiqlikdan jarohatlanishning oldini olish va haydovchi organizmini me'yoridan ortiq qizib ketishdan saqlash uchun yengil kivinishi, quyoshda yoki issiq binoda bo'lish muddatini cheklashi, kabinada havo almashinuvini tashkil qilishi, tez-tez yaxna ichimlik ichib turishi, imkoni bo'lganda cho'milib turishi kerak.

## 3.2.6. ETILLANGAN BENZIN VA ISHLATILGAN GAZLARDAN ZAHARLANISH

Uglerod oksidi (SO) avtomobil chiqargan gazlar tarkibida bo'ladi. U hidsiz va rangsiz* Shuning uchun kabinada bo'lsa nui haydovchi sezmaydi. Kichik garajlarda dvigatel 5 daqiqa ishlanganda havodagi SO aralashmasi o'limga olib kelishi mumkin. Shuningdek, tig'iz joylashgan transport oqimiga yoki dvigatelni o'chirmasdan kabinada uzoq muddat dam olganda zaharlanish mumkin. Zaharlanish sodir bo'lganda bosh og'riydi, loqaydlik, quloqda shang'illash, bosh aylanishi, qusish, yurak aynishi, teri langining oqarish alomatlari paydo bo'ladi.

Og'ir holatlarda o'limga olib kelishi mumkin. Jabrlangan kishini loza havoga olib chiqib yechintirish, sun'iy nafas oldirish kerak. Agar uning holati yaxshilanmasa tez tibbiy yordam chaqirish yoki davolash muassasasiga olib borish lozim.

Etillangan benzindan zaharlanish uning tarkibida bo'lgan tetroetil svinetsdan (uchetil qo'rg'oshin) bo'ladi.

Zaharlanish etillangan benzinda qo'l yuvish, shlang orqali benzin so'rishda oshqozon-ichakka tasodifan benzin tushishi yoki etillangan benzin bug'laridan nafas olish oqibatida bo'lishi «mumkin. Keskin zaharlanish oqibatida bosh og'rig'i, terlash, umumiy holsi/lik, uyqusizlik, xotira pasayishi, og'izda begona narsa bortlck luvulish alomatlari seziladi. Og'ir hollarda qon bosimi

Jabrlanganni havfli joydan chetlashlirish, ben/,in lekk.in joylarni % sovunlab yuvish, oshqozonni suv yoki 2% li soda frilmasi bilan yuvish zarur. Oshqozonni yuvish uchun ko'p miqdorda suv ichib keyin qusish kerak bo'ladi.

Bemor hushdan ketganda tezda davolash muassasasiga olib borish kerak.

## 3.2.7. HUSHDAN KETISH

Miyada yetarlicha qon aylanmasligi natijasida to'satdan qisqa muddatga hushdan ketish sodir bo'lishi mumkin. Unga sabab kuchli asabiylashish, keskin og'riq, qon yo'qotish, havo yetishmaydigan binoda uzoq vaqt oyoqda tik turish, keskin nafas olib o'pkani shamollatish, yotgan holatdan keskin turish sabab bo'lishi mumkin.

Hushdan ketishdan oldin kamhollik boshlanishi, chanqoqlik, quloqlarning shang'illashi, ko'zning qorong'ulanishi, sovuq ter paydo bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda bu alomatlar bo'lmasdan odam birdaniga yiqiladi. Sovuq ter chiqadi, teri rangi oqaradi, tomir urishi susayadi, ahyon-ahyonda ba'zi hollarda zo'rg'a seziladi, qo'l-oyoqlar sovuq, ko'z qorachig'i qisqaradi, nafas olish juda sekin bo'ladi. Jabrlanganni toza havoga olib chiqish yoki oynalarni ochib xonani shamollatish, ko'krak, bo'yin, qorin bo'shlig'ini kiyimdan bo'shatish. Bosh miyada qon aylanishining yaxshilanishi uchun jabrlanganni beliga yotqizib boshini gavdasidan past joylashtirish, oyoqlarini ko'tarish kerak. Keyin ko'krak va betiga sovuq suv sepish, 10%li ammiak eritmasi yoki boshqa xil keskin hidli (piyoz, sarimsoq) narsani hidlatish, chakkalarini odekalon bilan ishqalash, qo'l-oyoqlarini grelka bilan isitish zarur. Agar jabrlangan o'ziga kelmasa tili, nafas yo'lining berkitilmagani tekshiriladi. Buning uchun og'zini ochib tilini tortib chiqariladi. Tomir urishi va nafas olishi to'xtaganda sun'iy nafas berilib, yuragi massaj qilinadi.

I layotiy funksiyalarning ishi chuqur izdanchiqishi (qon aylanishi, nafas olish, modda almashinuvi)ga organizmning javob reaksiyasi karaxt (shok), deb tushuniladi. Og'ir jarohatlanish, tananing ancha qismi kuyishi, ko'p qon yo'qotishda shok holati vujudga keladi. Ayrim hollarda jarohatlanishdan keyin kuchli og'riq natijasida shok rivojlanadi. Boshqa hollarda qonga zaharli moddalar so'rilishi natijasida jarohatlangan to'qimalarda asta-sekin shok rivojlanadi. Shokning rivojlanishiga qonning ko'p miqdorda yo'qolishi, ochlik, badanning sovishi, suvsizlanish, tashish vaqtidagi silkinishlar sabab bp'lishi mumkin. Avtoavariyalarda sodir bo'ladigan jarohatlar ko'p hollarda shokning rivojlantirishiga olib keladi.

Shokni ikki fazaga farq qiladilar: hayajonlanish va iztirob chekish fazalari. Hayajonlanish jarohatlangandan keyin yuzaga keladi va qisqa vaqt davom etadi. Harakatchanlik va so'zlash hayajonlari og'riqqa shikoyat bilan belgilanttdi. Hushini yo'qotgan bemoi ahvoli og'irligini pisand qilmaydi. Og'riqni sezishi keskin o'sadi. Ovozi xiralashadi, so'zlari uzuq-yuluq, qarashlari bezovla, yu/i oqargan, qon bosimi me'yorida yoki yuqori bo'ladi.

Bir necha daqiqadan so'ng hayajon, asta-sekinlik bilan ban li.i hayotiy funksiyalarni iztirob berishga o'tadi, bu fazada qon bosliiii keskin pasayadi, tomir urishi tezlashadi, notekis bo'ladi, /o'rg'M bilinadi. Teri rangi oqarib, tuproq rangiga o'xshash bo'ladi. n.| yopishqoq ter qoplaydi. Jabrlangan zo'rg'a, sal eshitarli «»*» •) i shivirlaydi. Ko'z qorachig'lari kengayadi, nafas olishi vn/aH, hushini yo'qotgan, atrofdagi voqealarga befarq. Og'ir holnil mhi qusish, beixtiyor peshob va orqa chiqarish holatlari kii/.inl nil

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda eng avval bemoini "injy||) qol'diruvchi faktorlardan xoli qilish kerak. YTHsida L faktorlar badanning qisilib qolgan joylari bo'lishi iniind in I»» ни qonni to'xtatish kerak, undan keyin shikastlangan bad.in п'цЙйНЖ (qo'l, oyoq) harakatsizlantirish (imobilizatsiya) lozim

Bemorni issiq kiyim yoki choyshab bilan o'rab issiq kofe ichirish kerak. Agar uning qorin bo'shlig'i |.u.>ii ш shubha bo'lmasa, imkoni boricha og'riqsizlanlu.1•11си йжМш

berish lozim. Bunday bemorlarni lashish juda (c/ va clillvolkorlik bilan bajariladi.

## 3.2.9. CHO'KISH

Cho'kish bu nafas yo'llarining suv yoki boshqa suyuqlik, loy, axlatlar bilan yopilishi. Cho'kishda o'pkaga kislorodning kirishi yopilishi natijasida o'lim 2-3 daqiqada sodir bo'lishi mumkin, bu tibbiyot tilida asfiksiya (bo'g'ilish), deyiladi.

Shu zahotiyoq yurak to'xtashi ham mumkin. Bu suvga cho'kishda birdaniga sovuqning ta'siridan yoki yuqori nafas yo'llarida hatto juda kam miqdorda suv tushishidan bo'lishi mumkin. Cho'kayolganni iloji boricha tezroq suvdan chiqarish zarur. Hatto juda tez suvdan chiqarganda ham jabrlanganning tashqi ko'rinishi o'lganni eslatadi. Teri va shilimshiq qobiqlari keskin ko'kargan, bo'yin va bosh tomirlari bo'rtib chiqgan, yuzi, quloqlari shishgan, quloqlari, labi va barmoqlarining uchlari ko'kimtir binafsha rangda bo'ladi. Burun va og'izdan juda ko'p ko'pik va qon aralashmasi ajraladi.

Og'zidan loy va axlatlarni bo'shatib olib qorniga yotqizish, oyoqlarini tizzadan bukib, boshini ko'krak qafasidan pastroqga tushirish kerak. Keyin bir necha daqiqa chaqqon harakatlar bilan ko'krak qafasini qisib nafas yo'llari suvdan bo'shatiladi. Bundan keyin bemorni tekis joyga yotqizib, nafas olishi bilinmaganda sun'iv nafas berish va yurak sohasini massaj qilishga kirishiladi. Buning uchun dastlab bemorni siqib turuvchi kiyimdan bo'shatish lozim. Sun'iy nafas berish va yurakni massaj qilish juda uzoq vaqt davom ettiriladi, toki mustaqil nafas olish va yurak faoliyati tiklansin. Keyin tezlik bilan jabrlanganni tibbiy yordam muassasasiga olib borish kerak. Agar yo'lda nafas olish susaysa yoki to'xtasa sun'iy nafas berish va yurakni massaj qilish yana davom ettiriladi.

## 3.2.10. ELEKTR TOKIDAN ZARARLANISH

Baxtsiz hodisalarga elektr tokidan shikastlanish, kuyish va is gazidan zaharlanish va boshqalar kiradi.

Illcklr loklil.m Inki llangaiula /ararlang.iii ими мичшпмм keladi, yumк laollvnll buzilib, to'xtab qoladi va miliM in.,.., qolish darajasiga yeladi. Agar o'z vaqtida yordam (•. tilm i . bemor halok bo'lishi mumkin.Ток ta'sirida bo'lgan khlilni мЫн» • i manbaidan xalos qilish lozim. Elektr simi bilan bii la -liih in. gim 11i.. elektr uzatuvchi bo'lib qoladi, shuning uchun uiii'.t и /им i|»i I*|>c kiymasdan legib bo'lmaydi. Rubilnikdan lokin u/jMtitbi, pIhHi shitdan propkalar olib tashlanganda, elekli miiii » In itfn (• IfИ1Ш|91clи voki qirqilganda zararlangan kishi elekli lolid.in >|i iiihtill Мной unutmaslik kerakki, zararlangan kishini simd.ni ,i|i tiilitilllll и» him c|o'lga faqat rezina qo'lqop kiyish, oyoi| lagij-.i >|inin| МНН 1И1Мн (|d'yish, rezina oyoq kiyimi kiyish lozim. Agai I....... Ming МлН olishi sezilmasa va yurak faoliyati to'xtagan ⊳« ı i \ umiHH 1й|)Н|1 lomonidan massaj qilish kerak. Agar tok urg.m jovlail MMtHHMgHii ho'lsa teriga steril bog'lov qo'yiladi. Elekli loknl.iit 1иНМ1йН§НМ kishini sovuqdan ehtiyot qilish kerak.

## 3.3. JAROHATLANGANDA BIRIN( **III I I Mil! V** YORDAM KO'RSATISI I

### 3.3.1. JAROHAT HAQIDA ASOSIY **ТИМ 11 Ni MA**

Odam badani to'qimalarining biror bir a'/.osinliiji уцУ |||НММ organizmning shikastlanishiga jarohatlanish, dryllinlj Мн1м1|и jarohat, kuyish, sovuq urish, lat yeyish, chiqi.li и.иЬ, linih miyaning lat yeyishi va ichki a'zolarning shika.sll.ini In HhH1) I» butunligining buzilishi oqibatida jarohat paytlo **IKI'I.HII**

Jarohatlar paydo bo'lish xususiyatiga qarab kc.ilgan i It [illegible] siq*ilgan, ezilgan, yirtilgan, o'q tekkan va **IISIII.IUMH** [illegible] mumkin. YTHda ko'pincha jarohatlar ezilgan, **MIUI^HH** [illegible] Bunday jarohatlar ancha og'ir bo'ladi. Bu jarohallai и11 *ifI [illegible] ko'p miqdorda faoliyatsiz to'qimalar bo'ladi. III.и <i> [illegible] olib tashlanmasa, iflosligi natijasida hayot uchun s.ivlli |t [illegible] kasalliklar, stolbnyak yoki gangrenaga olib kelishi mi [illegible] asosan jarohal atrofidagi kirlardan vujudga keladi [illegible] mikroblarni yo'qolish yoki kuchsizlantirish tadbiriga tiiill [illegible]

jaronaign miKroomr lusnisnimng OKimi oiisnga .r.rpin i dcviladi.

Jarohatga imkoni boricha toza yuvilgan **qo'l bilan** ishlov beriladi. Agar buning iloji bo'linasa, qo'lni spirt, ben/,in bilan artib, tirnoqlarga yod surtiladi. Yod, spirt yoki etillanmagari benzin jarohatga tushsa uni kuydirib, bitishini qiyinlashtiradi.

Agar jarohatdan qon oqayotgan bo'lsa, avval qon oqishini to'xtatib keyin unga bog'lov qo'yiladi. Buning uchun individual bog'lov paketi, bint paxta, doka va boshqa toza materiallardan foydalanish lozim. Jarohatni suv, spirt, yod bilan chayish, unga poroshok sepish, malham qo'yish mumkin emas. Jarohatdan ilik, o'pka, ichak chiqib turgan bo'lsa u toza doka yoki mato bilan yopiladi, lekin ichkariga itarish mumkin emas. Qoi, oyoqning ko'p qismi shikastlanganda, unga bog'lov qo'ygandan keyin harakatsizlantirish kerak.

Bog'lov yopishtirib qo'yilishi, lekin qismasligi kerak. Bog'lov qo'yishda eng yaxshisi, individual bog'lov paketidan foydalanish ma'qul, chunki unda steril bog'lov materiallari bor. Yo'lda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda qo'l ostida bog'lov materiallari bo'lmaganda, qo'l keladigan materiallardan: matolar, yo'l aptekasi, uy aptechkasi va boshqalardan foydalanish mumkin. Steril bog'lov materiali kamchil bo'lganda uni ayab ishlatish zarur. Bog'lov qo'yishda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilish zarur. Bemorni ortiqcha qiynab qo'ymaslik uchun bog'lov qo'yilayotganda gavdaning shikastlangan joyi ushlab turiladi, so'ng bint o'ng qo'lda o'ralgan holda ko'tarib turiladi, bintni gavda yuzasidan uzmasdan, odatda chapdan o'ngga qarab o'raladi. Oyoq-qo'llarga bint o'ralganda shikastlanmagan barmoqlarning uchi ochiq qoldiriladi. Teri jarohatlanganda, unga bog'lov

BOSH TER1S1 SHIKASTLANGANDA QQ'YILADIGAN B1NTLI QALPOQ



%

qo'yish tic linn iintivlilii.il bog'lov paketidan foydalaniladi. Boshniug ! sochli qismi |nrolinllungauda esa maxsus bintli qalpoq qo'yiladi.

Ko'krak qal'asi, lei isi shikastlanganda esa spiral yoki boshoqsimon bog'lov qo'yll.sa, bo'g'imlar atrofi shikastlanganda sakkizsimon I bog'lab qo'yiladi.

## 3.3.2. KUYISH

Kuyish ximiyaviy va termik bo'ladi. Termik kuyishlar yuqori haroratdan (alanga, yonuvchi suyuqlik, qizdirilgan buyumlar)dan ; ,.sodir bo'ladi. Ximiyaviy kuyishlar kislotalar, ishqorlar, benzin bug'lari, yod, fosfor va boshqa moddalarning ta'sirida yuz beradi. Jarohatlanish og'irligiga qarab kuyishlar to'rt darajaga bo'linadi.

Birinchi darajali kuyishda jarohatda qizg'ish rang paydo bo'lib, I og'riydi, 2-3 kunda o'tib ketadi.

Ikkinchi darajali kuyishda jarohatning qizg'ish joyida pufaklar paydo bo'ladi, ularda tiniq sarg'ish suyuqlik to'la bo'ladi. Pufaklardagi suyuqlik tezda rangini o'zgartirib, massaga aylanadi. Infeksiya tushib, murakkablik vujudga kelmasa, 2-3 haftadan I keyin sog'ayish boshlanadi.

Uchinchi darajali kuyishda teri yuqori qatlamining o'lishi kuzatiladi va uning ustida zich qatlam hosil bo'ladi.

To'rtinchi darajali kuyishda terining butun qalinligi bo'ylab va ostki qatlamdagi hujayralar o'ladi.

Jabrlanganni yuqori harorat ta'sir qilayotgan joydan chetga olib chiqish yoki yongan manbani boshqa yo'l bilan yo'qotgandan keyin, badandagi yonayotgan olovni brizent yoki choyshab o'rab o'chirish kerak. Kuyish ko'lami katta bo'lganda, kiyimni qirqish, teriga I yopishib qolgan kiyimning atrofini qirqib, jarohat joyi qoldiriladi. Kuyishdan hosil bo'lgan pufaklarni teshish, ularga malham qo'yish I yoki poroshok sepish kerak emas. Ximiyaviy kuyish sodir bo'lganda kuygan joy suv bilan yuviladi, ishqordan kuyganda jarohat joyi 1-2%li limon, bor yoki sirka kislotasi bilan ishlov berish kerak. Kislotadan kuygan joylar sovunlab yuviladi yoki 2%li osh sodasi I eritmasi bilan ishlov beriladi. Kuygan joy toza mato bilan yopiladi. Kuyish maydoni katla bo'lganda choyshab bilan yopiladi. Havo

sovuq bo'lganda, jabrlanganni issiq o'rash va ko'p ail(|dorda suv yoki choy bcrib, davolash joyiga olib borish kerak.

### 3.3.3. UMUMIY SOVQOTISH VA SOVUQ URISHI I

Sovuq urish past haroratning teri va ancha chuqur joylashgan hujayralarga ta'siridan paydo bo'ladi. Ayrim hollarda sovuq urishi sezilmasdan sodir bo'lishi mumkin. Terining tegishli qismlari oqaradi, sovqotadi, sezish qobiliyatini yo'qotadi. Zararlangan to'qima qizigandan keyin og'riq seziladi. Sovuq urishi to'rt darajada farqlanadi.

Birinchi darajadagi kuyishda sovuq urgan joyda og'riq, kuydirish va zirqirash seziladi. Bu holat bir necha kun davom etadi. Keyin teri odatdagi tusini oladi, ayrim hollarda ko'kimtir iz qoladi va bu joy sovuqqa yuqori sezgir bo'ladi.

Ikkinchi darajadagi kuyishda jarohat joyida tiniq rangli suyuqlikka to'la pufak hosil bo'ladi.

Uchinchi darajadagi kuyishda teri va uning ostida joylashgan to'qimalarning o'lishi kuzatiladi.

To'rtinchi darajadagi kuyishda teri va to'qimalarning o'lishi suyakka yetadi.

Jabrlangan issiq joyga keltiriladi, unga issiq choy, kofe beriladi. Badanning sovuq urgan qismi ishqalanadi, terining isishi va qizg'ish tus olishidan keyin spirt, aroq bilan ishqalab, aseptik bog'lov qo'yiladi. Keyin jabrlanganni issiq o'rab, grelka bilan isitiladi. Pufaklar bo'lganda terini ishqalash taqiqlanadi, qor bilan ishqalash mumkin emas, chunki u terini yanada sovutadi va zararlangan joy yanada jarohat olishi mumkin. Agar imkoni bo'lsa, jabrlanganni vannaga solib 20-30 daqiqa davomida 18 dan 37 gradusgacha haroratda yotqizish kerak. Teriga vazelin yoki malham surtish taqiqlanadi, chunki bu zararlangan terini kasalxonada davolashni qiyinlashtiradi.

Umumiy sovqotish past haroratning uzoq vaqt ta'sir etishidan vujudga keladi. Unda holsizlik, charchoqlik belgilanadi, keyin uyqu keladi va odam o'ladi. Yordam ko'rsatish sovuq urgandagidek, hayot alomatlari bo'lmaganda darhol sun'iy nafas berish va yurakni massaj qilish kerak.

## 3.3.4. I ЛT/OЛ1 TIS CHIQISH VA S1NISIILAR

Terining biiluullgiga puturyetkazmasdanyumshoq to'qirnalarning zararlanishiga lal yeyish, deyiladi. Lat yegan joyda og'riq, shish paydo bo'ladi, o'sha joyning harorati oshadi, qon quyuladi, badanning shu joy idagi ish funksiyasi buziladi. Tomirlarning uzulishi natijasida ko'kimtir shish ko'rinishida qon quyuladi. Terining ustki (|ismi lat yeganda bir necha soatdan keyin, chuqurroq joylashgan lo'qimalar lat yeganda esa 2-3 kundan keyin ko'karish paydo bo'ladi.

Birinchi yordam og'riqni susaytirish va qon quyulishini 'kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Jarohatlangan a'zoga osoyishta sharoit yaratish bilan og'riqni susaytirishga erishiladi, buning uchun lat yegan qo'l ojsib qo'yiladi, bog'lov yoki shina qo'yiladi. Qon quyulishini kamaytirish uchun lat yegan joyni balandroq ko'tarib unga sovuq suv solingan idish yoki muz qo'yiladi. Bosh, qorin, umurtqa, ko'krak qafasi og'ir lat yeganda jabrlanganni davolash muassasasiga olib boriladi.

Qaltis lat yeyish tizza to'ppiqlarida tez-tez uchrab turadi. Bunda lo'qima siqiladi. Bo'g'im sohasida shish paydo bo'ladi, bir necha soatdan keyin ko'karib qon uyushadi, kuchli og'riq seziladi, harakat paytida u kuchayadi. Lekin jabrlangan kishi yura biladi.

Birinchi yordam og'riqni susaytirishga qaratiladi, bunga bo'g'imlarga bog'lov qo'yish, harakatsizlantirish bilan erishiladi.

Chiqish - bu bir yoki bir necha bo'g'im suyaklarini tashkil etadigan bo'g'im uchlarining joyidan siljib, bo'g'im xaltasi va birlashtiruvchi apparatning shikastlanishi. Bo'g'imdan tashqariga siljigan suyak chiqqan hisoblanadi.

v Suyak chiqishi to'la bo'lishi mumkin, unda bo'g'im suyaklari bir-biriga tegmaydi va chala bo'lishda bo'g'im suyaklari bir-biriga qisman tegib turadi.

Suyak chiqqanda keskin og'riq paydo bo'ladi, shikastlangan joyda harakat bo'lmaydi. Qo'l, oyoqlarning chiqqan joyidan narisi osilib qoladi. Sog' bo'g'imga qaraganda ularning konturi o'zgaradi, qo'l-oyoqlar qisqaradi yoki uzayadi.

Birinchi yordam og'riqni kamaytirish, gavda a'zolarini jarohatdan

keyin kelgan holaticha qimirlatmaslik va jarohat joyiga sovuq suv solingan idish yoki muz qo'yishdan iborat. Qo'llar bo'yinga ro'mol bilan osiltiriladi, oyoq esa shina yordamida terini yirtib suyak chiqish holati bo'lsa, jarohatga steril bog'lov qo'yiladi. Jabrlanganni tezda davolash muassasasiga olib borish kerak. Gavdaning yuqori qismida chiqish bo'lsa, o'tirgan holatda, pastki qismida chiqish bo'lsa, yotgan holda tashiladi. Chiqqan suyakni o'rniga solish mumkin emas, chunki bilmasdan qilingan harakat bemorning ahvolini yanada og'irlashtirishi mumkin.

Kishining suyaklari boylamlar bilan birikib, uning skeletini tashkil qiladi. Suyaklarga mushaklar yopishib turadi va ular qisqarib odamning harakat qilishini ta'minlaydi. Odamning skeletida hammasi bo'lib 200 dan ortiq suyak bo'ladi.

Yo'lda, transportdan shikastlanganda, mexanik jarohatda suyaklarning sinishi ko'p uchraydi. Suyaklarning ochiq va yopiq sinishi kuzatiladi. Bunda suyak o'rnidan siljishi va siljimaganligiga ko'ra farq qiladi. Yopiq suyak sinig'i sohasida teri ham shikastlangan bo'ladi. Oyoq, qo'l suyaklari singanda ularning shakli o'zgaradi, qovurg'alar shikastlanganda, nafas olish qiyinlashadi, ushlab turilganda singan joyda qirsillash seziladi. Chanoq suyaklari va umurtqa pog'onasi singanida, siydik ajralishi va oyoqlarning harakati buzilishi mumkin.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda suyakning singan sohasini harakatlantirmaslik kerak. Jarohatga bog'lov qo'yish uchun kiyim-bosh va oyoq kiyimini yechish mumkin emas, ularni qirqish va singan joyini ochib qo'yish lozim. Suyak ochiq singanda qon oqayotgan joyga darhol steril bog'lov qo'yib, maxsus taxtakach yoki taxta bilan taxtakachlanadi.

Shikastlangan suyak uchlarini qimirlatmaydigan qilish birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning asosi hisoblanadi. Buning uchun faner, metall, sim, plastmassa va boshqa metallardan yasalgan transport shinalari qo'llaniladi. Taxtakachni shunday qo'yish kerakki, singan joy yaqinidagi ikkita bo'g'im qimirlamaydigan bo'lsin. Suyak bo'rtib chiqqan joylarda taxtakach ostiga paxta yoki gazmoldan yumshoq qistirma qo'yiladi.

Taxtakachning singan sohaga tushadigan bosimini kamaytirish uchun ostidan taxta qo'yiladi va bint o'raladi. Shundan so'ng

shikastlangan ovoq yoki qo'l bintlab qo'yiladi.

BOLDIK SUYAGI SIM SHINAI.ASII

Yelka suyagi singanda taxtakachlashning eng yaxshi usuli standart sim to'r shinadan foydalanish hisoblanadi, undan tashqari bu o'rinda faner yog'och va boshqa qo'l ostidagi narsalardan montirovka, kalitlardan fgydalanib, shikastlangan yelka suyagi atrofidan ikki tomondan qo'ltiq tagidan panja uchigacha taxtakach qo'yiladi.

Bilak suyaklari singanda, son suyaklari singanda 1H*#Ь bilak, kaft bo'g'inlarida harakatsizlikni ta'minlash va qn In! hi hk • yordamida bo'yniga osib qo'yish kerak. Boldir paiij.i n.*,i chanoq-son bo'g'imlarida harakatsizlikni ta'minlash / и ш Man d . yoki taxtakachni qo'shimcha vositalar - taxtani o\".|. . . .$ (И tomonidan ichki hamda, chovdan tovongacha, lashql ьтнниМн tovondan qo'ltiqqacha qo'yib bog'lanadi.

Boldir bo'g'imi atrofiga, shuningdek, qo'ltiqqn |мНЦ mato qo'yib bog'lanadi. Boldir suyaklari o'rtasidan va pastki qismidan singanda, tizza va boldir bo'g'imlarini harakatsizlantirish lozim.

O'mrov suyagi singanda, bemorning ikki qo'ltig'i ostidan halqasimon paxta - doka o'tkazib, bir-biriga bog'lab qo'yilishi kerak.

Qovurg'alarsinganida ko'krak qafasiga bemor nafas chiqar-gan vaqtida bintning dastlabki o'ramlarini o'rab, keyin qattiq qilib bog'lab qo'yiladi

O'MROV SUYA(.I Ml BOCi'l AMI



CHANOQ SUYAGI SINGANDA BEMORNI /АМНИХ-А YOTQIZISH



UMURTQA POG'ONASI SINGANDA BEMORNI ZAMBILGA YOTQIZISH



Chanoq suyaklari singauida shikastlangan kishining ahvoli hamisha og'ir bo'ladi. Uni qattiq faneraga chalqancha yotqizish, lizzasi ostiga yumshoq qilib o'ralgan palto yoki to'shakni oyoqlarini tizza bo'g'imlarida bukiladigan vaziyatda qo'yish lozim.

Umurtqa pog'onasi singanda ko'pincha orqa miyaning shikastlanishxavfi paydobo'ladi. Bunday xavf umurtqalarning shikastlanish vaqtida qimirlashi natijasida, shuningdek, keyinroq shikastlangan kishini noto'g'ri ko'tarib olib borishda sodir bo'ladi. Umurtqa pog'onasi shikastlangan kishini mutlaqo qimirlatmay tibbiyot zambili yoki taxtadan qilingan shinaga solib yaqin o'rtadagi tibbiy muassasaga zudlik bilan olib borish tavsiya etiladi.

Ba'zi hollarda kishilar transport ostida qolib ketadilar, bunda gavdaning ayrim qismlari uzoq vaqt bosilib qolganida jarohatlanish zaharlanishi kabi og'ir oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Oyoq-qoilar mashina g'ildiraklari ostida qolib ketganida birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish uchun ularni ozod qilish va darhol zararlangan joy yuqorisiga ezilgan yumshoq to'qimalarda zaharli moddalarning so'rilishini to'xtatish uchun jgut yoki bosib turiladigan bog'lov qo'yiladi. Terining shikastlangan qismlariga bog'lov qo'yiladi va qo'l yoki oyoq taxtakachlanadi. Bunday shikastlangan kishilar juda tashna boiadilar. Tashnalikni qondirish uchun va o'tkir buyrak yetishmovchiligining oldini olish uchun shikastlangan kishiga ko'p miqdorda sodali suyuqlik ichirish (sutkasiga 30 grammgacha soda) kerak. Organizmga tushgan soda siydikni ishqorlaydi va buyraklarning tanadan zaharli moddalarni chiqarib yuborishini yaxshilaydi.

Ko'krak qafasi, qorin bo'shlig'i sohasi qattiq lat yeganda ichki organlar aksari o'pka, jigar, taloq,^buyraklar shikastlanishi

mumkin. Itn orgimlarning shikastlanishi aksarival ko'p va ichki (|on kelishi hamda og'riq hilan o'tadi. Bunday hollarda lal yegan joyga sovii(| uarsa qo'yish va shikastlangan kishini zudlik hilan libbiy muassasaga olib borish zarur.

## 3.3.5. MIYA CHAYQALISHI, QORIN VA KO'KRAK JAROHATI

Bosh lat yeganda yoki urilganda miya chayqalishi sodir bo'ladi. Jabrlangan bir necha soniyadan, bir necha soat, hatto bir necha kungacha hushidan ketishi mumkin. Bemor ayrim hollarda ko'p martalab qusadi. Hushiga kelganda sodir bo'lgan voqealarni eslolmaydi.

Bemorni orqasi bilan yoki yonbosh yotqizish, boshini yon lomonga burib qo'yish kerak. Bunday holatda tilning ichkariga ketishi va qusish massasining nafas olish yo'lini to'sishi oldi olinadi. Shu holatda bemor davolash muassasasiga olib boriladi.

KO'KRAK QAFASINI TESHUVCHI JAROHAT.
A) OCHIQ PNEVMOTRAKS,
B) BEMORNI TASHISH USUL1



Ko'krak qafasi jarohatlanganda qovurg'alar sinishi mumkin. Bunda harakat paytida keskin og'riq paydo bo'ladi, ayniqsa jarohat joyini bosganda.

Birinchi yordam ko'krak qafasini bint yoki sochiq bilan yaxshilab bog'lov qo'yishdan iborat. Ayniqsa, ko'krak qafasini teshib o'tgan jarohat juda xavfli. Agar bunda yurak, aorta, o'pka jarohatlangan bo'lsa, kuchli qon oqish bo'ladi, bu o'limga olib kelishi miunkiu. Ko'krak qafasini teshib o'tgan jarohatda hatto ichki a'zolar jaro hatlanmagan bo'lsa-da, plevral bo'shliqqa tashqi havo kiradi.

Plevral bo'shliqning bosimi atmosfera bosimidan kam, shuning uchun tashqaridan kiradigan havo o'pkaning siqilishiga, yuiakning siljishiga, qon aylanishining buzilishiga olib keladi. Ko'krak qafasi ning bunday jarohali ochiq pnevmotraks deyiladi, bu hayol uchun xavf tug'diradi.

()chk| pnevmoiraksning oldini olish uchun yopishqoq plastik plyonka, havo o'tkazmaydigan plyonka bilan tezda ko'krak qafasi jarohatini berkilish zarur va bog'lov qo'yish kerak. Bemorni kasalxonaga iloji boricha tezroq o'tirgan holatda olib borish kerak.

Qorin bo'shlig'ining jarohali juda xavfli, chunki bunda qorin bo'shlig'ida joylashgan a'zolar jarohatlanishi mumkin, ular zudlik bilan operatsiya qilinishi kerak. Agar jarohat joyidan tashqariga ichak yoki boshqa a'zolar chiqib tushsa, ularni zinhor qayta solish mumkin emas. Jarohat atrofiga ishlov berilgandan keyin tashqariga chiqqan a'zolar ustiga steril doka yopiladi, a'zolarning yon tomonlariga qalin qilib paxta qo'yiladi. Bularning hammasi bintli bog'lov yoki sochiq bilan yopiladi, atroflari tikiladi yoki bandai bilan ildiriladi. Qorin bo'shlig'i jarohatlanganda bemorga ovqat, suv, dori-darmon berish mumkin emas. Yotgan holda gavdaning yuqori qismini ko'targan, oyoqlarini tizzasidan bukilgan holda tashish lozim.

Odamning qorni bilan qattiq jism ustiga tushishi yoki qoringa kuchli zarba berilganda, qorin bo'shlig'ida yopiq jarohat paydo bo'ladi. Bunday holatlarda o'pka, buyrak, jigar, taloqning jarohatlanishi oqibatida kuchli ichki qon quyilishi yuz beradi. Qorinda kuchli og'riq va qattiq bo'lib qoladi. Jabrlanganning rangi oqaradi, oyoqda turolmaydi. Odatda shok rivojlanadi. Bemorni ovqatlantirish va unga suv ichirish mumkin emas.

Qorin bo'shlig'ining ochiq jarohatidagidek yotqiziladi, shokga qarshi tadbirlar ko'riladi, tezda shifoxonaga olib boriladi.

# YO'L CHIZIQLARI

Mana siz «Yo'l harakati qoidalari»dan batafsil saboq oldingiz. Sirasini aytganda, qo'lingizdagi o'quv qo'llanma sizga ko'chada yurish madaniyatini o'rgatishda muhim ahamiyatga molik bo'lgan kitobdir. Ko'chalar va yo'llar transport vositalari bilan tobora tig'izlashib borayotgan bir kezda «Yo'l harakati qoidalari»ni o'rganishingiz va amalda tatbiq etishingiz siz uchun o'ta muhim vazifa ekanligini yana bir karra eslatib o'tishimiz joiz. «Yo'l harakati qoidalari»ning har bir bo'lim va bandlarini o'rganib chiqishingiz jarayonida sizda ko'chalar va yo'llarga o'rnatilgan yo'l belgilari va yo'l chiziqlarini amalda mukammal

o'zlashln ib olnhpi Ihi' Ignn qi/iqish orlganligi tabiiy hoi. Shuni e'tiborga olib dars Noalhiiidan lashqan o'zingiz mustaqil ravishda bilib, o'rganib olishingiz uchun yo'l belgilari va yo'l chiziqlarini alohida bo'lim sifatida e'tiboringizga havola etyapmiz. Unda siz har bir yo'l belgisi va yo'l chizig'iga berilgan sharh bilan ham batafsil tanishib olasiz. Shuni unutmangki, har bir yo'l belgisi va yo'l chizig'ini yod bilish «Yo'l harakati qoidalari»dan olgan saboqlaringizni yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Yo'l chiziqlari harakatlanishni tashkil etishda keng qo'llanilib, haydovchining asosiy e'tibori yo'naltirilgan joylarga chiziladi. Yo'l chiziqlari yotiq va tik chiziq guruhlariga bo'linadi.

# YOTIQ CHIZIQLAR

Yotiq chiziqlar yo'lning qatnov qismi yuzasiga chiziladi. Bo'ylama yotiq chiziqlar va ularning mohiyati jadvalda keltirilgan.

BO'YLAMA CHIZIQLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

| CHIZIQNING VAZIFASI | CHIZIQNI BOSIB O'TISH | CHIZIQNING AMALDAGI SHAKLI |
|---|---|---|
| **1.1. Yo'lning o'rtasida chizilgan ensiz, sidirg'a oq chiziq qarama-qarshi kelayotgan transport oqimini ajratadi.** | *Taqiqlangan* | |
| **1.1. Yo'lning xavfli joylarida, harakatlanish yo'lkalari o'rtasida chi-zilgan, uzluksiz oq rangdagi sidirg'a chiziq bo'laklarning chegarasini bildiradi.** | *Taqiqlangan* | o o |
| **1.1. Rasmdagi 1.16.2 va 1.16.3 chegaralari. Yo'lning harakatlanish taqiqlangan qismini (xavlsi/lik orolcha-larining chcgara.si) anglai adi.** | *Taqiqlangan* | |

| CHIZIQNING VAZIFASI | CHIZIQNI BOSIB O'TISH | CHIZIQNING AMALDAGI SIIAKI I |
|---|---|---|
| **1.1. Yo'lning chekkasi yoki maxsus maydonchalarda chizilib, transport vositalarining to'xtab turish joyi chegarasini bildiradi.** | *[1] aqiqlangan* |  |
| **1.1. Yo'lning chekkasiga chizilgan ensiz sidirg'a oq chiziq harakatlanish qismining chegarasini bildiradi.** | *Istalgan tomondan mumkin* |  |
| **1.2. Avtomagistrallarda qatnov qismining chekkasiga chizilgan enli (20 sm) uzluksiz sidirg'a chiziq qatnov qismining chegarasini bildiradi.** | *Istalgan tomondan mumkin* |  |
| **1.3. Yo'lning o'rtasida chizilgan parallel ikki sidirg'a oq chiziq to'rt va undan ko'p bo'lakli yo'llarda qaramaqarshi yo'nalishdagi transport vositalari oqimini ajratadi.** | *Taqiqlangan* |  |
| **1.4. Yo'lning harakatlanish qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siqqa (bordyurga) chizilgan sariq chiziq transport vositalarining to'xtashini taqiqlaydi. Belgilangan yo'nalishli transportga daxli yo'q.** | *Istalgan tomondan mumkin* |  |
| **1.5. Yo'lning o'rtasiga chizilgan, ensiz uzuq-uzuq oq rangdagi chiziq ikki yoki uch bo'lakli yo'llarda qarama-qarshi kelayotgan transport vositalari oqimini ajratadi.** | *Taqiqlangan* | <br>/ Γ P y ^<br>O o |

| CHI/IONINFJ VЛ/11 \'.I | ( HIZIQNI ITOSIB O'TISH | CIIIZIQNING ЛМЛ1 !>AGI SHAKII |
|---|---|---|
| 1.5. Bir yo'nalishdn harakatlanish uchun ino'ljallangan ikki yoki undan ko'p bo'lakli yo'llarda ho'laklarning chegarasini hildiradi (oraliq masofaning chiziqqa nisbati 1/3). | *Mumkin* | |
| 1.6. Bo'laklar chegarasida chizilgan, ensiz uzuq-yzuq oq chiziq sidirg'a chiziqqa yaqinlashish haqida ogohlantiradi (oraliq inasofaning chiziqqa nisbatan 1/3). | *Istalgan tomondan mumkin* | 1 3<br>1/3 |
| 1.7. Rasmdagi 1.7 chiziq. Chorrahada chizilgan ensiz uzuq-uzuq, oralig'i qisqa oq chiziq chorrahalardagi harakatlanish bo'laklarini bildiradi. | *Istalgan tomondan mumkin* | **Pastki rasmdagi 1.7 chiziq** |
| 1.8. Oddiy chiziqdan ikki barobar enli, qisqa, uzuq-uzuq chiziq tormozlanish (sekinlashish) yoki tezlanish bo'lagi bilan yo'lning asosiy bo'lagi o'rtasidagi chegarani bildiradi. | *Istalgan tomondan mumkin* |  |
| 1.9. Reversiv harakatlanishda qatnov qismining chegarasi: | | |

A. Reversiv svetoforlar bo'lmaganda haydovchining *o'ng tomonidan mumkin.*

B. Reversiv svetofor yoqilgan bir yo'nalishli bo'laklarni ajratayotganda *istalgan tomondan mumkin.*

V. Reversiv svetofor o'chirilgan bo'lsa, qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimlarida *tmiiqltiiunli.*

| CHIZIQNING VAZIFASI | CIIIZIQNI BOSIB O'TISH | CHIZIQNING AMALDAGI SHAKLI |
|---|---|---|
| 1.10. Sariq. Yo'lning arakatlanish qismi chetiga oki yo'l chetidagi to'siq bordyur) ustidan chizilgan ariq chiziq to'xtab turishni aqiqlaydi. Taksometri ishlab urgan taksilarga daxli o'q. | *Istalgan tomondan mumkin* |  |
| 1.11. Sidirg'a chiziq yonida hizilgan uzuq-uzuq chiziq aqat biror bo'lakka qayta izilishiga ruxsat etadi. | |  |

A. *Uzuq-uzuq tarafdan mumkin.*

B. Sidirg'a chiziq tomonidan esa faqat [uvib yoki chetlab *o'tishni tugatayotganda numkin.*

| | | |
|---|---|---|
| 1.12. «To'xtang» zozuvi «to'xtash» chizi-g'i svetoforning va tartibga joluvchining taqiqlovchi shorasida, boshqarilmaydigan rhorrahalarda, «To'xtamasdan j'tish taqiqlangan» (2.5) belgisi jldida haydovchi to'xtashi ozim bo'lgan joyni ko'rsatadi. Bu chiziq «to'xtash» axborot-shora belgisi (5.33) bilan qo'llanilishi mumkin. | *Istalgan tomondan mumkin* | |

1.13. Bir qator bo'lib terilgan uchburchaklar; 1.20 bitta katta uchburchak. «Yo'l bering» belgisi bilan qo'llanib, kesishgan yo'lda harakatlanayotgan transport vositasiga yo'l berish zarur bo'lganda, haydovchi to'xtashi lozim bo'lgan joyni ko'rsatadi. Yo'l chekkasida a'rnatilgan «Yo'l bering» belgisi ko'rinishi cheklangan ko'p bo'lakli yo'llarda qo'llanilishi mumkin.

1.14.1. I I I ' I'niiillrl chizilgan keng uzluksiz chiziqlar («zebra») piyodalarning o'lish joyini bildiradi. «Piyodalar o'tish joyi» (.^ lf>) axborot-ishora belgisi bilan qo'llanilishi mumkin. Yo'lning bundnv joylarida, haydovchi shu yo'nalishning qatnov qismida bo'lgan piyodalarni o'tkazib yuborishi kerak (YHQ 16.). 1.14.3. Svelol'oi yordamida tartibga solinadigan piyodalarning o'tish joyi. Svetofoi nliqi qizil chirog'i yashilga almashib, piyodalar qatnov qismini tark eiishjMi ulgurmagan bo'lsa, haydovchi piyodalarning shu yo'nalish bo'vii ha nl» borishlariga imkon berishi kerak (YHQ 16.3).

1.15. Velosiped yo'li kesib o'tganjoy. Bunday boshqarilm.i\illyim kesishmada velosiped haydovchisi yo'lda harakatlanayotgan lianspni i vo^italarini o'tkazib yuborishlari kerak (imtiyoz yo'ldagi li.ni\| vositalarida).

1.16. Transport oqimlari ajraladigan 1.16.3 transport oqliiiliiii qo'shiladigan joydagi yo'naltiruvchi orolchani bildiradi. Orob Ii.. chegarasi 1.1 chizig'i bilan belgilangan bo'lib, uni kesib o'lr.li \<4 i ustiga chiqib to'xtash taqiqlanadi.

1.17. Sariq. Sariq rangdagi, arrasimon chiziq umumfoydalnnndiyin transport vositalari hamda taksilarning to'xtab turish joyini hildiindl

1.18. Chorrahada va kesishmalar oldida bo'laklar bo'yl •|Hll<• qismining yuzasiga chizilgan yo'naltirgich, mustaqil ravislnln м»И «Bo'laklar bo'yicha harakatlanishning yo'nalishi» (5.8 I ' i axborot-ishora belgilari bilan qo'llanib, transport vositalariga U.l.d i и bo'yicha ruxsat etilgan yo'nalishni ko'rsatadi.

**1.19. 450** burchak ostida chizilgan yo'naltirgich, yo'l **qisnnninj** *••• joyiga yaqinlashganlik haqida ogohlantirib, alohida yoki -ли L torayishi» (1.18.1-1.18.3) belgilari bilan birga qo'llaniladi

1.22. Son bilan yonma^yon yozilgan harf yo'l (harakailniii Ii yo'nalishi) raqamlarinl ko'rsatadi.

1.23. Yo'lning faqat belgilangan yo'nalishli transpoii lm l ij-mi bildirib, (5.9:5.10.1) axborot-ishora belgilari bilan qo'llmiil #I * Bu bo'lak sidirg'a chiziq bilan ajratilmagan taqdirda, haydn ... o'ngga burilish, yo'lovchilarni chiqarish, tushirish iii hnn bn bo'lakka kirishlari mumkin (YHQ 21.2).

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar:

1. Yo'l (Itl/iqlurlnlng vazifasi nimadan iboraI?
2. Yo'l ehi/iqliil'l qanaqa luilarga bo'linadi?
3. Uzluksl/ oq i Ш Iqulny. va/ilasi nimadan iboraI?

-Г. woiunuiu V\| LIIIMl|lll 1МП11/ 1/ linilgn I UЛ1ПI VI I I.II I I III I f

5. Avtomagistralda qanday yoii(| chiziq qo'llaniladi?

6. Sariq rangdagi yotiq chiziqlarning vazifalari nimadan ilmrat va u yo'lning qaysi joylarida chiziladi?

7. Sariq rangdagi yotiq chiziqlarni kesib o'tishga ruxsat benladimi?

8. Reversiv bo'lakni ko'rsatuvchi yotiq chiziqni kesib o'tish mumkinmi?

9. Yonma-yon chizilgan uzluksiz va uzlukli (uzilgan-uzilgan) chiziqlarning vazifasi nimadan iborat va qaysi tarafidan kesib o'tish mumkin?

10. Tik chiziqlarning vazifalari nimadan iborat?



# TIK CHIZIQLAR

Tik chiziqlar — yo'l inshootlari va jihozlari yuzalariga ketma-ket chizilgan yo'l-yo'l, oq-qora chiziqlar majmuidan iborat bo'lib, ularning o'lchamlarini ko'rsatishda, ko'z bilan chamalash vositasi sifatida xiznial qiladi.

Osmon bulut, kulrang bo'lganida, qorong'i vaqtlarda yo'lning yoritilmagan qismlarida yo'l yoqasidagi tik beton inshootlarning rangi osmon va yo'lning rangi bilan juda o'xshashib ketadi va harakatdagi haydovchi ularni farqlay olmay, beton inshootlarni ko'rmay qoladi. Bu .hoi haydovchini beton to'siqlarga (inshootlarga) urilib ketishiga olib keladi.

2.1. Chiziqlar ko'priklar, osma yo'llar ustunlari (va shu kabi beton inshootlar) yuzasiga chizilib, harakatlanayotgan transport vositasi haydovchisiga yo'ldagi (yo'l yoqasidagi) xavf soluvchi to'siqning rangini keskin ajratib, ko'rinishini osonlashtiradi.

2.2. Tonellar, ko'priklar, osma yo'l va ko'priklarning pastki qir-ralariga chizilgan oq-qora rangli chizma haydovchiga inshootning pastki qismini farqlashini osonlashtiradi.







2.5

2.2

26

*J*3

24

27

2.3. Chiziqlar ajratish bo'laklaridagi yoki «xavfsizlik orok lialarUdagi diniialoq ustunlarni bildiradi.

2.4. Chiziqlar yo'naltiruvchi beton yoki temir beton uslunlar, to'siq tirgaklar va qoziqlarni bildirib, qorong'i vaqtda, quyuq tumanda, hamma joy oppoq qor bilan qoplanganida yo'lning trayektoriyasini o'/ining keskin farqlanadigan oq-qora rangi bilan aniq ko'rsatadi.

2.5. Chiziqlar yo'lning kichik radiusli burilishlari, tik nishabliklari va boshqa xavfli joylarida yo'l chetiga o'rnatilgan to'siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

2.6. Chiziqlar boshqa joylardagi to'siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

2.7. Chiziqlar yo'lning xavfli joylarida uning chetidagi to'siqni (bordyurni) va yo'l sathidan baland bo'lgan «xavfsizlik orolchalari» chetini bildiradi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar:

1. Yotiq chiziq nima va u qanday vazifani bajaradi?
2. Yotiq chiziq bor joyda transport vositalarining harakatlanishi haqida gapirib bering.
3. Tik chiziqlar va ularning ahamiyati haqida gapirib bering.
4. Piyodalarning yakka, guruh bo'lib jamlanmada harakatlanishida nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Agar piyodalar yo'lkasi bo'lmasa, qanday harakatlanish lozim?
6. Piyodalar uchun ajratilgan bo'laklar, yo'lkalarda biron inshoot qurish mumkinmi?
7. Piyodalarning qoidalarda belgilangan vazifalari haqidagi tushunchalaringizni gapirib bering.

# SINOV UC HUN SAVOLLAK

Л vlimilibilliii ga (|iiy!ii yo'nalishda haraknllanishga ruxsat beriladi?

1.Qizil avlomobilga - to'g'riga, ko'k avtomobilga - to'g'riga va chapga.
2.Qizil va ko'k avtomobilga - to'g'riga.
3. Qizil avtomobilga - to'g'riga, ko'kka - chapga.



Bu belgilarning qaysinisi «bir tomonlama harakatlanish yo'liga chiqish»ni bildiradi?




E

1. Birinchi va beshinchi. 2. Uchinchi va beshinchi. 3. Ikkinchi va to'rtinchi.

Bu belgi avtomobilning harakatlanishiga ruxsat etadi:

1. Barcha yo'nalishlarga.
2. B va V.
3. A va V.




Bunday yo'l belgisi o'rnatilgan yo'l qismlarida mototsikllarga qanday yuqori tezlik bilan harakatlanishga ruxsat etiladi?

A T A M A

1. 60 km/s.
2. 70 km/s.
3. 80 km/s.
4. 90 km/s.
5. lOOkm/s.

9 Bu belgi bilan belgilangan yo'l qismlarida ajratuvchi bo'lakning uzilish joyida burilishga ruxsat etiladimi?

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Faqat to'la va/.ni 3,5 loitniigiichn bo'lgan transport vosiliiliit lgii i no Mil «Hindi,

H I

m

л Agar yo'l bo.shlani.shidii ushbu belgi jLJlurgan bo'lsa, qatnov qi.smining chap chctidagi bo'lakka o'tish mumkinmi?

1. Chapga burilish uchun mumkin.
2. Quvib o'tish uchun mumkin, agar ro'paradan harakatlanish bo'lmasa va bo'lak qatnov qismining qolgan bo'lagidan uzuq-uzuq belgi chizig'i bilan ajratilgan bo'lsa.
3. Hech qanday holatda mumkin emas.



Bu belgi nimani bildiradi?

1. To'siqlarni aylanib o'tishning dastlabki ko'rsatkichi.
2. Boshqa qatnov qismiga qayta tizilishning dastlabki ko'rsatkichi.
3. Qarama-qarshi yo'nalish bo'lagiga chiqishning boshlang'ich ko'rsatkichi.



Bu belgi nimani bildiradi?



I. To'la vazni 3,5 t.dan ortiq bo'lgan yuk avtomobilining majburiy harakat yo'nalishini
2. Faqat yuk avtomobillari uchun harakat yo'nalishini.
3. Yuk avtomobillari, traktorlar, o'zi yurar mashinalar uchun, agar chorrahada ularning harakati yo'nalishlardan birida taqiqlangan bo'lsa, tavsiya etiladigan harakat yo'nalishini.
4. Shanarlararo yuk tashuvchi yuk avtomobillarining harakat yo'nalishini.

8 Belgilardan qay biri ajratuvchi bo'lagi bo'lgan yo'lning harakat uchun yopiq qatnov qismini aylanib o'tish yo'nali.shini yyko'rsatadi? "f Q|

<i

10 Bu belgidagi ko'k asosda aholi manzili nomi yozilgan qo'shimcha nimani bildiradi?

f SAVABQAN
1ЩЩКУ
^ HVM

1. Ko'rsatilgan aholi inan/.iliga aholi manzillnridii harakallanish tartibini o'rnaluvchl. Qoldnlar talablari taallii(|li lui'lmjigan yo'ldan lwrilmli 2. Ko'rsjitilgan aholi man/.lllgii hiirnkiilliinUh avloinagi.slrjil lto'ylah amalga oNhlrlltiill I Ko'rNalllgan nutn/.ll ma/liir Jiholl yuNlmyillgim Joyda JoylUNhgan.

11 Qaysi belgi «МсИпюмхопа» yoki «MotcUni bildiradi?

g] 11

'a S

12 Qaysi belgi «Kcnipiiigoiil bildiradi?

Щ р а

И 3

[ a ]

13 Bu yo'l belgisi haydovchiga bildiradi:

1. 800 metrdan keyin to'xtab turish joyiga kelishini.
2. Belgidan 800 metrdan keyin dam olish joyiga kelishini.

# MASALALARNING JAVOBLARI

| № | JAVOB |
|---|---|
| 1 | 3 |
| 2 | 3 |
| 3 | 1,5 |
| 4 | 2 |
| 5 | 3 |
| 6 | 3 |
| 7 | 3 |
| 8 | 5 |
| 9 | 2 |
| 10 | 1 |
| 11 | 3 |
| 12 | 4 |
| 13 | 2 |

# MUNDARIJA

KIRISH SO'ZI ........ 3
YO'L HARAKATI QOIDALARI — YO'LLAR QONUNI ........ 4
YO'L ELEMENTLARI ........ 8
CHORRAHA VA UNING TURLARI ........ 13
YO'LNING QATNOV QISMIDAGI BELGILAR (CHIZIQLAR). PIYODALARNING YAKKA, GURUH VA JAMLANMA BO'LIB HARAKATLANISHI ........ 18
TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARI ........ 23
TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKATINI TARTIBGA SOLUVCHI VOSITALAR ........ 26
TARTIBGA SOLUVCHINING ISHORALARI ........ 3
YO'L BELGILARI ........ 35
OGOHLANTIRUVCHI BELGILAR ........ 37
IMTIYOZ BELGILARI ........ 42
TAQIQLOVCHI BELGILAR ........ 44
BUYURUVCHI BELGILAR ........ 47
AXBOROT-ISHORA BELGILARI ........ 48
SERVIS BELGILARI ........ 50
QO'SHIMCHA AXBOROT BELGILARI ........ 50
OSMA DVIGATELLI VELOSIPED VA MOPEDLARDA HARAKAT QILISH QOIDALARI ........ 52
SHIKASTLANGANLARGA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH ........ 54

YO'L CHIZIQLARI ........ 84
YOTIQ CHIZIQLAR ........ 85
TIK CHIZIQLAR ........ 91
SINOV UCHUN SAVOLLAR ........ 93

M.RIXSIYEV, Q.KARIMOVA

# YO'L HARAKATI QOIDALARI

8-SINF O'QUVCHILARI UCHUN
O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: Adiba Hamro qizi
Texnik muharrir: Muhriddin Hamroyev
Dizayner, sahifalovchi: Eldor Karimov
Musahhih: Suxrobjon Avvalboyev

Nashriyot litsenziyasi: AI № 092.
Bosishga ruxsat etildi: 10.10.2012-yil.
Shartli bosma tabog'i: 6. Nashr tabog'i: 6,1.
Bichimi: 70x100 $^{1}/_{16}$ Respect garniturasi. Ofset bosma.
Adadi: 1500.
17-12 — buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot manzili:
«Yurist-media markazi» nashriyoti,
Toshkent shahri, Otchopar ko'chasi, 82-uy.
Tel.: 230-04-74, (+99894) 181-27-80."
E-mail: yurist_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:
«Ko'hi-Nur» MChJda chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor Shoh ko'ch. 44.
199 — buyurtma.

KIRISH

YO'L H

YO'L E

CHORR

YO'LNI

CHIZI

VA JAS

TRANS

QODA

TRANS

TARTI

TZRTI

YO'L E

OGOHI

IMTIYO

TAQIQI

BUYUR

AXBOR

SERVIS

QO'SHI

OSMA I

HARAK

SHIKAS

YORDA

YO'L C

YOTIQ

TIK CH

MNOY